

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI, TARIX VA FALSAFA FAKULTETI
XORIJIY MAMLAKATLAR TARIXI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

OMANOV SHOHRUX ANVARXON O'G'LI

TURKIYA 1960 – 1970-YILLARDAGI HARBIY TUZUM DAVRIDA

5120300 –Tarix (Xorijiy mamlakatlar tarixi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: tarix fanlari nomzodi,
dotsent A.X. Xudoyberdiyev

Toshkent – 2015

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

Jahon siyosati, tarix va falsafa

fakulteti dekani t.f.n.

R.R.Alimova

“ ” _____ 2015 yil

Xorijiy mamlakatlar tarixi

kafedrası mudiri

s.f.n.**N.A.Abdullaev**

“ ” _____ 2015 yil

MUNDARIJA:

Kirish	3
I.bob. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Turkiya tarixida harbiylarning siyosiy roli	10
1.1. Yaqin Sharq tarixida harbiylarning roli	10
1.2. XX asr 50 – yillarining oxirida Turkiyada ijtimoiy – siyosiy hayot.....	16
1.3. 1960 – yil 27 – maydagi harbiy to'ntarishning sabablari va uning oqibatlari.....	24
1.4. Koalitsion hukumat davrida Turkiya	30
II.bob. XX asr 70 – yillarida harbiy tuzum davrida Turkiyaning ichki vatashqisiyosatining xususiyatlari	37
2.1. 1971 – yil 12 – martdagi harbiy to'ntarish va uning Turkiyadagi keyingi siyosiy jarayonlarga ta'siri.....	37
2.2. 1973 – yilgisaylov va Koalitsion hukumatning hokimiyat tepasigake.....	43
2.3. XX asr 70 – yillarida Turkiyaning tashqisiyosati.....	50
Umumiy xulosalar	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	63
Ilovalar	67

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yildan- yilga rivojlanib, oliy maqsad sari ildamlamoqda. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot uchun, olib borilayotgan amaliy islohotlar birinchi o'rinda inson va uning manfaatlarini ko'zda tutadi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsadi har bir fuqaro uchun katta ma'suliyat yuklaydi. Yurt ravnaqiga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash va bu yo'lda fidoiylilik ko'rsatish, darhaqiqat sharaflilik vazifadir. Zero, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot xususiyatlarini va omillarini tahlil etarkanmiz, xalq fidoyiligi va vatanparvarligi, taraqqiyotning asosiy omillaridan bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan, tadqiqotchi olimlar zimmasiga ham mazkur muqaddas ma'suliyat yuklanadi. Tarixchilar nafaqat mamlakatimizning boy tarixini, balki xorijiy sharq va g'arb mamlakatlarining tarixiy taraqqiyot xususiyatlari va tarixiy tajribalarini tadqiq etish orqali mamlakat rivoji uchun muhim hissa qo'shishlari lozimdir. "Binobabarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizda o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriytlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvida erkinlashtirish, huquq va erkinliklarini, fikrlar rangbarangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz."¹

Hamamizga yaxshi ma'lumki, "O'tmishni anglash tarixni bilishdan boshlanadi"². Tarixiy o'tmishda turkiy xalqlar bizning xalqimiz bilan turmushning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini birgalikda kechirganlar. Mazkur xalqlar bir necha marotaba bizning xalqimiz bilan yagona davlat birligida ham hayot kechirgan, ya'ni O'zbekiston va Turkiya davlati tarixi bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. "O'zbekiston boshqa musulmon davlatlar bilan ham o'zaro munosabatlarni—shu jumladan ko'p tomonlama asosda

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008,b 114.

²Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent. O'zbekiston, 1996, b 324.

chuqurlashtirishga intilmoqda”.³ Shuning uchun ham qardosh xalqlar xususan, Turkiya davlati bilan yaxshi qardoshlik munosabatlarini saqlab, ular bilan oʻzaro manfaatli iqtisodiy–siyosiy aloqalarni rivojlantirish uchun ham bu davlat tarixini toʻlaqonli oʻrganish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan jahon tamaddunining bir qismi boʻlgan Turkiyaning 1960 va 1970 yillardagi siyosiy va ijtimoiy manzarasini tahlil etish dolzarblik kasb etadi. Turkiyaning geostrategik joylashuvi, shuningdek etnomadaniy xususiyatari, uning xalqaro munosabatlaridagi mavqeʻyi bilan birga, davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega boʻlgan harbiylar faoliyatiga taʼsir etgan. Turkiyada Gʻarb va sharq madaniyatlari toʻqnashganini, sivilizatsiyalar muloqotining oʻziga xos samaralarini koʻrishimiz mumkin. Bu esa, davlat va jamiyat boshqaruvida ham oʻz ifodasini topgan. Demak Turkiyaning 1960 – 1970 - yillardagi tarixini oʻrganish quyidagi jihatlari bilan dolzarblik kasb etadi:

Birinchidan, bilamizki, Turkiyada azaldan harbiylar mamlakatning siyosiy hayotida va boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etishgan. Usmonli imperiyasi qudratining asosiy omili ham imperiyaning asosiy tayanchi ham harbiylar, yaʼni oʻsha davrlarda yanicharlar korpusi hisoblangan. Ular mamlakat boshqaruvida oʻz pozitsiyalariga ega boʻlishgan. Demak harbiylarning ahamiyati oldindan yuqori boʻlgan.

Ikkinchidan, Ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiyadagi ijtimoiy – siyosiy vaziyat murakkab edi. Natijada mamlakat hayotida koʻplab ichki muammolar va hukumatga nisbatan ishonchsizlik, noroziliklar paydo boʻladi. Bu esa mamlakatning siyosiy boshqaruvida qanaqadir oʻzgarish qilishni talab qilardi. Demak Turkiyaning bu davrdagi tarixini oʻrganish 1960 – yilgi harbiy toʻntarishdan oldin mamlakatdagi vaziyat va oʻsha harbiy toʻntarish oʻtkazishning sabablari, shart – sharoitlari va oqibatlarini oʻrganish bilan ahamiyatli va dolzarb hisoblanadi. Qolaversa, 1946 yilda tashkil topgan va oʻsha davrda hukmron partiya hisoblangan Demokratik Partiya dastlab faoliyatini boshlaganida demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga katta eʼtibor bergan. Lekin keyinchalik

³Karimov I.A. Oʻzbekiston buyuk kelajak sari – Toshkent: Oʻzbekiston, 1998, b 31.

esa bu narsalardan chekingan holda mamlakatda har jabhada mutloq boshqaruvni qo'lga olishadi. Bu esa xalqning noroziligiga sabab bo'ladi va to'ntarish o'tkazish uchun eng asosiy sababga aylanadi.

Uchinchidan, 1960 yilgi harbiy to'ntarishdan keyin hokimyatni qo'lga olgan harbiylar Mustafo Kamol Otaturk boshlab bergan demokratik va respublikachilik islohotlar o'tkazishni davom ettiradi. Harbiylar bu yo'lda ko'plab amaliy islohotlar o'tkazadi. Masalan, 1961 yilda mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilinadi, bir qancha siyosiy partiyalar tuziladi va faoliyatlari kengayadi. Mamlakat hayotida bir qancha ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi.

To'rtinchidan, 1960 – 70- yillarda mamlakatda tashqi va ichki vaziyatlar yana inqiroz holatini keltirib chiqaradi. Siyosiy tizimda chuqur inqiroz kelib chiqishi tufayli ofitserlar korpusida kichik burjua sotsiolizmi g'oyalari tarafdori bo'lgansiyosiy arboblardan aloqa o'rnatgan yashirin guruhlar paydo bo'la boshladi. Ularning maqsadi davlat manfaati yuzasidan g'arblashgan siyosiy tizimni yo'q qilish va harbiy rejimni o'rnatishni muhim deb hisoblashadi. 1971 yil 12 martda harbiylar “yumshoq” davlat to'ntarilishini uyushtirishdi va hokimyat yana harbiylar qo'liga o'tdi.

Turkiyaning 1960 – 1970- yillardagi tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davr mamlakat hayotida beqiyos ahamiyatga ega. Bu davrda ko'plab o'zgarishlar yuz beradi. Bu davrda ikki marta harbiy to'ntarish yuz beradi. Mamlakat boshqaruvini qo'lga olgan harbiylar bir qancha ijobiy va amaliy islohotlarni amalga oshirishadi. Bu davrdagi Turkiyaning tashqi siyosati qanday bo'lganligi va bunda AQShning pozitsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini nimalarda ko'rishimiz mumkinligi ham muhimdir. O'sha davrda Turkiyaning iqtisodiyot sohasida va tashqi siyosatda olib borgan siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bu davrning Turkiya uchun qay darajada ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. 1960 – 1970-yillarda yuz bergan voqealar keyingi siyosiy jarayonlarga qay darajada ta'sir etgan va bu davr Turkiyaning ijtimoiy – siyosiy hayotida qanaqa iz qoldirganligini o'rganish o'sha

davrning ham hozirgi kunning ham muhim va dolzarb masalalaridan hisoblanadi. **Mavzuning o'rganilganlik darajasi:** Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, tashqi siyosatimizning tamoyillari va mintaqaviy xavsizlik masalalari keng yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida so'zlagan nutqlariga tayanildi. Mavzuning har tomonlama dolzarb ekanligini hisobga olgan holda, juda ko'p ham sharq, ham g'arb tarixchi olimlari va siyosatchilar bu mavzu yuzasidan o'z tadqiqotlarini olib borganlar. 1960 – 1970-yillarda Turkiyada yuz bergan harbiy to'ntarishlar va boshqa ijtimoiy – siyosiy voqealar ko'p o'rganilgan mavzu hisoblanadi. Chunki aynan bu davr Turkiya uchun muhim ahamiyatga ega va juda ko'plab ijtimoiy – siyosiy voqealar sodir bo'ladi. Bu voqealar bevosita mamlakatdagi keyingi siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi va ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilashda asosiy o'rinni egallaydi. Bu davrga oid ko'plab asarlar va maqolalar yozilgan. Turk mualliflaridan Cetin Yetkin⁴, Ceyhun Haydarog'lu⁵, Dr. Irfan Neziroglu⁶, Hasan Celal Güzel, prof .dr. Idris Bal⁷ning asarlari bu davrni o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi. Çetin Yetkin Turkiyadagi harbiy to'ntarishlar va bunda Amerikaning pozitsiyasini o'z asarida yoritib bergan. Ceyhun Haydarog'lu harbiy to'ntarishlar yuz bergan davrda mamlakatning iqtisodiy hayoti qanday bo'lganligini o'z asarida ifodalab bergan. Prof .dr. Idris Bal esa bu davrda Turkiyaning tashqi siyosati masalalariga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari Turkiya tashqi siyosatini belgilaydigan prinsiplar va unsurlar haqida ma'lumotlar va Turkiyada faoliyat yuritayotgan harbiy tashkilotlar va ularning davlat boshqaruvidagi roli ko'rsatib o'tilgan. Abdulvahap Akinci⁸ o'z asarida 1960 va 1971 yillarda bo'lib o'tgan harbiy to'ntarishlar va ularning oqibatlari to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. Ahmad Feroz⁹ kitobida Turkiyaning

⁴Çetin Yetkin. Türkiye'de askeri darbeler ve Amerika.- İstanbul, 2010.

⁵Ceyhun Haydarog'lu. Türkiye'de darbelerin ekonomi politigi'.- Eskişehir, 2011.

⁶Dr. Irfan Neziroglu. Türkiye'de askeri müdahaleler ve basın (1950-1980).- İstanbul, 2003.

⁷Dr. Idris Bal. Askeri darbeler ve Türk dış politikası.- Ankara, 2011.

⁸Abdulvahap Akinci. Türkiye'nin Darbe Geleneği: 1960 ve 1971 Müdahaleleri. Ankara, 2014.

⁹ Ahmed Feroz. Demokrasi Sürecince Türkiye 1945-1980.-İstanbul, 2007.

1945-1980 yillardagi demokratik harakatlar to'g'risida ma'lumot berilgan. Burcu Bostanoğlu¹⁰ oz asarida Turkiya va Amerka o'rtasidagi II jahon urushidan keyingi munosabatlar aks ettirilgan. Armoğlu Fahirning¹¹ asari va boshqa yana bir qancha turk tarixchi olimlarining yaratgan asarlar juda qimmatlidir. Rus mualliflaridan Киреев Н.Г.¹²ning asari juda katta ahamiyatga ega. Chunki bu olimning asari XX asr Turkiya hayotiga bag'ishlangan va asarda juda qimmatli ma'lumotlar tahlil qilingan holda keltirib o'tilgan. TBMMning tadqiqot markazining bu davr tarixiga oid ma'ruzasi ham asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Rus mualliflaridan yana bu davr tarixiga oid bir qancha asarlar yaratilgan. Bulardan Мирский Г.И.¹³, Данилов¹⁴ В.И, Поцхверия Б.М, Новичев А.Д.¹⁵, Юрьев М.Ф.¹⁶, Гасратян М.А. va boshqa rus olimlari bu davrga oid asarlar yaratishgan. Ko'p jildlik bir qancha mualliflar tomonidan yaratilgan "Genel Türk tarihi" to'plamida harbiy to'ntarishlar yuz bergan davrga oid qiziqarli faktlar keltirilgan. O'zbek olimlaridan A.M. Qosimov va M. Abdurazzoqovning Turkiya tarixi haqida yozgan asarlarida bu davr tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining vazifalari: Tadqiqot ishidan ko'zlangan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- Turkiyada 1960 – 1970 – yillarda harbiy tuzum davrida yuz bergan ijtimoiy – siyosiy jarayonlarni aniq dalillar asosida yoritib berish;
- XX asr 50 – yillarining oxirida Turkiyadagi ijtimoiy – siyosiy hayotni o'rganish;
- 1960 – yilgi harbiy to'ntarishning sabablari va oqibatlarini ochib berish;
- 1971 – yilgi harbiy to'ntarishning sabablari va oqibatlarini yoritish;
- Bu davrda Turkiya tashqi siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

¹⁰ Burcu Bostanoğlu. Türkiye-ABD ilişkileri. – Ankara, 2008

¹¹ Armoğlu Fahir. 20. Yüzyıl Siyasi Tarihi. - İstanbul, 2007.

¹² Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - МОСКВА: крафт ИВ РАН, 2007

¹³ Мирский Г.И. Армия и политика в странах Азии и Африки. –М., 1970,

¹⁴ Данилов В.И. «Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжатется» - М:Восток, 1998, - С 87.

¹⁵ Новичев А.Д. Турция. Краткая история. – М., 1965.

¹⁶ Юрьев М.Ф. История стран Азии и Северной Африки после второй мировой войны (1945-1990). – М., 1994.

- 1960 – 1970 – yillar oralig'ida yuz bergan voqealarning keyingi siyosiy jarayonlarga ta'sirini aniqlash;
- Bu davrda Turkiyada yuz bergan voqealarni yoritish

Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti: 1960 – 1970- yillardagi Turkiyadagi harbiy tuzum davrida harbiylar faoliyati va uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotida tutgan o'rni va rolini, davlat va davlat boshqaruvinio'rganish tadqiqot ishining asosiy ob'ekti hisoblanadi.

1960 – 1970- yillardagi Turkiyadagi harbiy tuzum davrida yuz bergan voqealar, ijtimoiy – siyosiy jarayonlar, harbiy tashkilotlar va siyosiy partiyalar tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot ishining maqsadi: 1960 – 1970- yillardagi Turkiyada harbiy tuzum davrini o'rganish hamda bu davrda yuz bergan ijtimoiy – siyosiy voqealarni, jarayonlarni chuqur yoritish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Turkiya jamiyatida tarixan harbiylarning o'rni eng yuqori mavqeda turganligini ko'ramiz. Shu nuqtai nazardan Turkiya Respublikasida 1960 – 1970- yillardagi harbiy to'ntarishlarda harbiylar faoliyatini tadqiq etish orqali, g'arb a'nanalari sharq tamaddunining bir qismi bo'lgan Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday aks etganini bilishimiz mumkin bo'ladi. Turkiyada harbiylar faoliyati Turk davlatining ajralmas qismi va asosiy timsoli bo'libgina qolmay, taraqqiyotni baholashda mezon bo'lib xizmat qiladi.

Turkiyada harbiylar faoliyati va ularning davlat boshqaruvida ishtirok etishida ichki omillar qatori tashqi omillar ham ta'sir etganki, bu bevosita Turkiyaning ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh bilan olib borgan yaqinlashuv siyosati va sharqdagi siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Turkiyada harbiy rejimning salbiy va ijobiy taraflariga tahliliy yondashildi. Mustaqil milliy mafkura nuqtai-nazaridan Turkiyadagi ijtimoiy–siyosiy tizimga obyektiv baho berildi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: Mazkur bitiruv malakaviy ishda tahlil qilingan holdan yoritilgan voqealar, faktlar, xulosalar va boshqa bir qator

masalalarga oid materiallar “Tarix” boshqa gumanitar yo’nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy – amaliy qo’llanma sifatida qo’llanilishi mumkin.

Tadqiqotishining tuzilishi va hajmi: Mazkurtadqiqot ishi kirish, yettita paragrafni o’z ichiga olgan ikki bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat.

I.bob. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Turkiya tarixida harbiylarning siyosiy roli

1.1. Yaqin Sharq tarixida harbiylarning roli

Yaqin sharqdagi an'anaviy jamiyat har doim etnik va diniy turfa xilligi bilan ajralib turadi. Bu ma'lum bir vaziyatlarda etnik va diniy asosda nizolarni keltirib chiqaradi. Ko'pincha bu nizolar aholining turli qatlamlari o'rtasida siyosiy va iqtisodiy qarama – qarshilikka sabab bo'ladi. Oxirgi yillarda globallashtiruv jarayoni ta'sirida yaqin sharq davlatlari aholisining ulkan qismining siyosiylashuvi ro'y berdi. Bunday sharoitda chegaralanmagan konfessionalizm va millatchilik etnik separatizm va diniy nizolarga sabab bo'ladi va yaqin sharq mamlakatlarining davlat yaxlitligining saqlanishiga jiddiy xavf tug'diradi.

Milliy – etnik va diniy asosda paydo bo'ladigan ko'plab turli xil muammolar shunga o'xshash nizolarni tartibga solishda armiyaning ishtirokini oldindan belgilab qo'yadi. Harbiylar Yaqin Sharq mamlakatlarida siyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynashgan.¹⁷ Bugun esa harbiylar yaqin sharq mamlakatlarining siyosiy tizimining barcha elementlari o'rtasida yuqori ishonchga ega va davlatning doimiy instituti hisoblanadi. Armiya birligi uchun eng asosiy xavf etnik millatchilik va diniy ekstremizm. Armiya o'zining birligini saqlash maqsadida himoyachi pozitsiyasi yoki milliy – tarixiy, madaniy – diniy an'analarni va mamlakat qadriyatlarini egasi sifatida chiqishi mumkin.¹⁸ Boshqa tarafdin esa ichki siyosiy maqsadlarda harbiylardan foydalanish shu narsani ko'rsatadiki, armiya yoki uning bir qismi islohotlar jarayonida murakkab va bir xil bo'lmagan natijalarida o'zining mustaqil roliga da'vo qilishni boshlashi mumkin. Harbiy tajribasi yuqori bo'lgan va ma'lum bir sharoitlarda og'ir jangovar texnikaga ega bo'lgan harbiylar shaxsiy hokimiyatga shuningdek qo'shni xalqlarga qarshi yo'naltiriladi.

¹⁷Владимир Ахмедов.Роль армии в урегулировании этнорелигиозных конфликтов на Ближнем Востоке–М: Восток, 2008,стр 3.

¹⁸Сурен Манукян. Роль армии на ближнем востоке – Ереван, 2007, стр 4.

Sharq mamlakatlarining ofitserlar korpusini taqdiq qilgan ko'pchilik olimlar shunaqa xulosaga kelishdi, harbiy tayyorgarlik va ta'lim, kollektivlikni his qilish ofitserlar o'rtasida milliy, dunyoviy dunyoqarashni asta sekinlik bilan kengaytirishga yordam beradi. Fuqarolik siyosiy elitadan farqli ravishda harbiylar ancha jips va diniy va etnik xarakterdagi siyosiy oqimlar ta'siriga kamroq tushadi. Lekin boshqa shunga o'xshash xulosalar har bir aniq vaziyatda va har bir mamlakatda haqiqiy holatni har doim ham aks ettiravermaydi. Bir faktga diqqatni qaratish shart emas, ya'ni armiya – bu jamiyatning nusxasidir. Ofitserlar tarkibida barcha asosiy ijtimoiy guruhlar bor. Boshqa tarafdin esa, ofitserlar korpusida jamiyat guruhlarini vakillari kamroq bo'lishi mumkin yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin. Misol uchun, Sudanda XX asrning 50 – 60-yillarida ofitserlar korpusi tarkibida asosan mamlakatning janubiy tumanlaridan kelgan harbiylar bo'lgan.¹⁹Pokistonda fuqarolar urushi arafasida ofitserlar g'arbiy tumanlardan kelgan harbiylar sanalishgan.

Ofitserlar korpusida dunyoviy xarakter va milliy mentalitet bir qancha mamlakatlarda ya'ni ofitserlar asosan aholining bir guruhidan bo'ladigan mamlakatlarda qattiq chegaralangan. Harbiylar birdamligi ofitserlar korpusi jamiyatning ikki yoki undan ortiq etnik – diniy guruhlaridan tashkil topadigan mamlakatlarda o'ziga xos mustahkamligi farq qilmaydi. Ofitserlarning hayotiy qiymati ularning etnik, diniy va qayerdan kelib chiqishiga bog'liq. Mamlakatda etnik va diniy nizolar paydo bo'lganida ofitserlar korpusi diniy yoki etnik tamoyillarga ko'ra bo'linishi mumkin. Bunday holatlarda an'anaviy jamiyat bilan oldingi aloqalari kasbiy birdamligi va milliy umumiylikni his qilishdan ustun kelishi kerak. Livanda chegarada XX asrning 70-80- yillarida musulmonlar son bo'yicha xristianlardan oshib ketdi.²⁰Oldin ofitserlar korpusining katta qismi xristianlardan tashkil topgan edi.Natijada fuqarolar urushi sharoitida oxirgi vaqtgacha armiya ixtilofni ko'rsatmaslik uchun amalda siyosiy voqealarda ishtirok

¹⁹Мирский Г.И. Армия и политика в странах Азии и Африки. -М., 1970, стр 120.

²⁰Ahmet Taner. Siyaset Bilimi.- Eskişehir: Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2004, s 98.

etishdan qochishga harakat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ofitserlar korpusiga ayniqsa siyosiy inqiroz sharoitida, diniy nizolar kelib chiqqanda birmuncha mustahkam birlik sifatida qarash to'g'ri bo'lar edi.

Harbiylarning nizolarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi o'rni ko'p jihatdan hukmron tuzumning tipini, davlat qurilishini modelini, davlat boshqaruvi tizimida harbiylar egallaydigan joyni, fuqarolik hokimiyati bilan o'zaro aloqasining xususiyatini, shuningdek aholining etnik – diniy tarkibini va tashqi faktorlar ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Yaqin sharq mamlakatlarida harbiylar diniy va etnik asosda paydo bo'lgan nizolarni to'xtatishni uddalab kelmoqda (Misr, Suriya, Iroq).²¹To'g'ri, shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlarda faqatgina doimiy armiya emas yana qanchadan – qancha xavfsizlik kuchlarining maxsus bo'limlari harakatda bo'lishdi. Ularning muvaffaqiyatli harakatlari ko'p jihatdan hukmron tuzumning harbiylar – fuqarolar koalitsiyasi ko'rinishida bo'lishiga, aholining diniy birligiga, regional kuchlarning muvozanatining ijobiylashuviga va tashqaridan bo'ladigan to'g'ridan - to'g'ri aralashuvlarning yo'q bo'lishiga imkon yaratdi. Armiya tajribasi, ayniqsa harbiy tuzum o'rnatilgan mamlakatlarda, etnik – diniy belgilarga ko'ra davlatning tarkibiy qismlarga bo'linishini oldini olishda armiya yaxshi tajribaga ega emas. Ko'pgina harbiy tuzumlar, aholi tarkibining etnik – diniy xilma – xilligi mavjud bo'lgan mamlakatlarda shuni ko'rsatdiki, harbiylar bu nizolarning tarqalishini to'xtatib turolmaydi yoki xohlashmaydi.²²Aksincha, tez – tez ular ongli ravishda yoki bilmagan holda bu nizolarning rivojlanib ketishiga ko'maklashadi. Shular qatorida bu narsa jamiyatning dezintegratsiyasiga va zulming ortishiga olib keldi. Yaqin sharqdagi harbiylar boshqaruvi shakli shuni ko'rsatadiki, nizolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy parametrlarining ahamiyatiga yetarlicha baho berishmadi. Ular og'ir etnik va diniy ziddiyatlarni “turli xil” hujumlar, qurol yo'li bilan hal qilish mumkin deb hisoblashadi. Shunga ko'ra harbiylar ichki tartibsizliklarni kuchaytirishga juda ham qattiq aloqalari bo'ladi, unda armiya

²¹Сурен Манукян. Роль армии на ближнем востоке.- Ереван, 2007, стр 6.

²²Мирский Г.И. Роль армии в политической жизни стран "третьего мира". -М., 1989, стр 45.

vamamlakat birligiga bo'ladigan muqarrar xavfni ko'rib, ularni tez, metod va vositalarga qaramasdan bartaraf qilishga harakat qilishadi.

Bugungi kunda islohotlar jarayoni va siyosiy modernizatsiya qilish ta'sirida armiyani siyosatga jalb qilish me'yorlari o'zgarmoqda. XX asrning 50 – 70-yillarida fuqarolar armiya boshqaruvidan chetlashtirildi va u qo'lida butun fuqarolik va harbiy hokimyatni to'pladi. Bugungi kunda Yaqin sharq davlatlarining ko'pchiligida asta - sekinlik bilan harbiylar hokimiyati tuzumidan harbiylar – fuqarolar koalitsiyasi tizimiga o'tilmoqda.²³Fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtiroki etishi kengaymoqda (Misr, Turkiya, Eron). Harbiylarning siyosiy nafsi va ijtimoiy – iqtisodiy maqsadlari yanada mo'tadil bo'lmoqda. Ularning hokimlik vakolati o'lchovlari qisqarmoqda, lekin harbiylarning siyosatga aralashuvi esa yanada kengaymoqda. Ular siyosiy hokimyatni va uzoq muddatga davlat boshqaruvini qo'lga olishga harakat qilishmoqda. Ularning maqsadi mamlakatda raqobatlashayotgan siyosiy guruhlar o'rtasidagi kuch muvozanatini saqlash, hokimyatning konstitutsiyaviy asosini mustahkamlash, iqtisodiy farovonlikni taqsimlashda jiddiy o'zgarishlarning oldini olish. Ayniqsa Yaqin Sharqdagi bugungi sharoitda faqatgina armiya va harbiylardan bu nizolarni bartaraf etishga umid bog'lash to'g'ri bo'lmas. Hozirda fuqarolarga, ularning harkati yoki harakatsizligiga ham bog'liq. Agar ular bu nizolarni hal qilishdan o'zini chetga olsa, o'rtalarida kelishmovchilik yuzaga keladi va yana armiya siyosiy sahnaga chiqishiga to'g'ri keladi. Modomiki, harbiylar kelishuvdan ko'ra kuch ishlatishga harakat qilishadi. Ular sun'iy ravishda etnik – diniy muvozanatni o'rnatishga harakat qilishadi, Agar fuqarolik hokimiyati ijtimoiy jihatdan javobgar bo'lsa, jamiyatning qo'llab – quvvatlashidan foydalanadi va armiyani ittifoqdosh sifatida chaqirishdan qo'rqishga hojat qolmaydi, armiya esa adolatli, xolisona harakat qiladi. Bunday holatda dunyoviy mafkuraga va milliy g'oyaga sodiqlik ekstremistik qarash va kayfiyatni birlashtirishda asosiy faktor bo'lib xizmat qiladi va bir xilda ko'tarilishga yordam beradi. Lekin har qanday sharoitda bir narsani tushunish kerak, yaqin sharqning hozirgi sharoitida keng fikrlovchi ofitserni topish

²³Мирский Г.И. Третий мир: общество, власть, армия. – М., 1976, стр 35.

qiyin. Bir tomondan umumiy dunyoqarash va umummilliy o'zlikni anglash, ikkinchi tomondan an'anaviy qadriyatlarga sodiqlik etnik va diniy tafovut o'zaro qarshilikka uchraguncha tinchgina yashayveradi. Bunday holatda bir narsaga, ya'ni armiya oldindan taxmin qilmaydigan vositachi yoki hakam roliga chiqishi mumkin degan ishonch ancha kamayadi. Shunday qilib, shunga o'xshash nizolardagi yakuniy qarorga siyosiy yo'llar bilan erishish mumkin. Armiyadan foydalanish esa toza funksional xususiyat kasb etishi va davlatni tashqi dushmanlardan himoya qilishga va soxta terrorizmga emas haqiqiysiga qarshi kurashishga yo'naltirishi kerak.

Armiyaning ahamiyati va harbiy boshqaruv Turkiya siyosiy hayotida har doim eng muhimi sanalgan. 1930 – yillarning boshiga kelib, harbiylar o'zlarini xalq erkinligining timsoli sifatida qabul qilib, mamlakat barqarorligi va hududiy yaxlitligining kafolati sifatida muhim o'rin egalladi.²⁴ Uzoq vaqt davomida Turkiyada “harbiy patronaj” tizimi mavjud bo'lgan. Turkiyada harbiylar mamlakat hayotida qadimdan muhim o'rin egallab kelishgan. Ular Saljuqiylar davridan boshlab turli xil imtiyozlarga ega bo'lishgan. Bilamizki, mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini hududlarni zabt etish siyosati bo'lgan.

Usmonli turk imperiyasining dunyoda qudratli davlat bo'lishiga olib kelgan asosiy omillardan biri – bu uning armiyasi. Imperiyada juda kuchli armiya tashkil qilindi. Armiya orqali dunyoning uch qit'asida mustamlakalarga ega bo'lgan yagona davlat bo'lganligini tarixning o'zi isbotlab turibdi. Yanicharlar korpusining tashkil qilinishi Usmonli turk imperiyasining g'alabaga erishishining eng asosiy omili sanaladi.²⁵ Sultonlar armiya bilan hisoblashishgan. Qolaversa armiyaga ko'plab imtiyozlar berishgan. Harbiylar sulton hokimyatining eng muhim tayanchi hisoblangan. Usmonli imperiyasida harbiylar 1834 – yilgacha, ya'ni harbiy – len tizimi amalda mavjud bo'lgunga qadar mamlakatning tayanchi hisoblangan. Ularga bosib olingan hududlar bo'lib berilgan. Usmonli turk imperiyasining zaiflashuviga

²⁴Зубкова А.И. Влияние снижения роли армии в политике Турции на стабильность в стране – М., 2005, стр 3.

²⁵ Туровская А.А. Роль армии в политическом развитии Турецкой Республики и Исламской Республики Пакистан после второй мировой войны. Сравнительный анализ.- Москва, 2014, стр 19.

ham aynan armiya sabab bo'lgan. Ular o'zlariga berilgan imtiyozlardan foydalanib davlatga, markaziy hokimyatga bo'ysunmay qo'yadi. Natijada XVIII asrda Usmonli imperiyasida zaiflashish kuzatiladi, ayniqsa harbiy jihatdan Yevropadan orqada qola boshlaydi.²⁶ Bunga qurolli kuchlar va harbiy fanlar sohasida Yevropaning ustunligini tan olish, yevropa tajribasini aynan shu sohaga jalb qilish, o'z navbatida, madaniyat, siyosat va ma'muriy boshqaruv sohasida ayrim jihatlarni o'zlashtirishni kechroq amalga oshirish va boshqalar sabab bo'lishgan. Saralangan kadrlarni tayyorlash maqsadida g'arb na'munasi asosida harbiy o'quv maskani tashkil qilindi. U yerda ta'lim olganlar kerakli fanlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, yevropa madaniyati, falsafasi hayot tarzini ham o'rganishdi. Usmonli imperiyasidagi harbiy o'quv maskani o'qituvchilarini yevropadan kelgan mutaxassislar tashil qilishgan, yosh ofitserlar tez – tez tajriba almashish maqsadida Yevropaga borishgan. Shunday qilib, Yevropadan farqli ravishda, Turkiyada harbiylar zamonaviy fikrlovchilarlar bo'lishgan. XIX asr oxiri – XX asr boshidagi voqealarni bu fikrni isbotlaydi. Yosh turklar harakati aynan harbiylar orasida paydo bo'lgan. Sulton Abdulhamid II tuzumiga qarshi bo'lgan bu tashkilot 1889 – yil harbiylar tomonidan tuziladi. Yosh turklar faoliyatida harbiylar, ayniqsa 1908 – yilgi revolyutsiya arafasida hal qiliuvchi rolni o'ynashgan. Armiya revolyutsiyani qo'llab – quvvatlagan. Bu qo'llab – quvvatlashga doir bir dalil shuni ko'rsatib turibdiki, 1908 – yilgi revolyutsiya paytidagi armiya ofitserlar korpusi tarkibida sinfiy o'zgarishlar sodir bo'lganini isbotlab turibdi. Lekin o'sha davrda ham harbiylar orasida eskilik tarafdorlari ham revolyutsiya ruhidagi harbiylar ham bo'lishgan. Shuning uchun siyosat masalasida armiya butunlay jipslashgan deb aytib bo'lmaydi.

Mustafo Kamol – harbiy general, milliy – ozodlik harakatining yo'l boshchisi, Turkiya Respublikasi asoschisi, armiyani siyosatdan ajratishni ilgari surgan.²⁷ Ofitserlar – qurolli kuchlar vakillari – siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish huquqiga ega bo'lishmagan. Davlat boshqaruvini o'z qo'lga olgan JXP

²⁶ Шеремет В.И. Становление Османской империи.- М., 2001, стр 60.

²⁷ Akşin, Sina. Türkiye Tarihi-Çağdaş Türkiye.-İstanbul: Can Yayınları, 2003, s 75.

a'zolarining yarmini sobiq harbiylar tashkil qilgan. JXP, armiya, amaldorlar va davlat tashkilotlarini boshqaruvchilari Turkiya respublikasi siyosiy qatlamini tashkil etishgan. Buni harbiylar va davlat o'rtasidagi aloqani usmonli imperiyasi an'anasining davomi deb atash mumkin. Bundan tashqari bir narsani ta'kidlash kerakki, bu davrda armiya dunyoviylik va kamolizmning 6 ta tamoyillarining himoyachisi bo'lgan. Qolaversa yana bir narsani ta'kidlash joizki, XX asr ikkinchi yarmida XXI asr boshida Turkiyada jamiyatning armiyaga bo'lgan ishonchi oshgan (76 foizdan 91 foizga). Armiya muntazam ravishda jamiyat ishonchida sud organlarini, politsiyani va TBMMni ortda qoldirgan holda birinchi o'rinda kelmoqda. Armiyaga davlatning bir instituti sifatida shunchalik ishonch bildirish dunyoning boshqa bir davlatida kuzatilmaydi. Armiyani mamlakat siyosiy hayotiga jalb qilish ikkinchi jahon urushidan keyin Turkiyada ko'ppartiyaviylik tizimini joriy qilinishi bilan ancha oshdi.²⁸

1.2. XX asr 50 – yillarining oxirida Turkiyada ijtimoiy – siyosiy hayot

Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyodagi siyosiy va mavkuraviy manzara yangicha tus oldi. Dunyoning ikki qutbga bo'linishi va sovuq urush tufayli siyosiy kurashlar avj olishi Turkiyadagi siyosiy o'zgarishlarga ta'sir o'tkazmasdan qolmadi. Boshqa tarafdin, ikkinchi jahon urushi fashizmni fosh etilishi bilan nihoyalanishi, xalqaro miqyosda demokratiyani jozibalarantirdi. Xalqaro siyosatda demokratik boshqaruv tinchlikparvar siyosiy tartibotning voz kechib bo'lmaydigan asosi sifatida baholana boshlandi. Turkiya o'z ichki va tashqi siyosatini ana shu jarayonlarga qarab belgilashga majbur bo'ldi. Turkiya bunday sharoitda BMTga qo'shilish va g'arb davlatlari bilan, xususan AQSh bilan yaqinlashish uchun siyosiy o'zgarishlarga majbur edi. Bu yaqinlashuv Turkiyani xalqaro siyosatda yolg'izlanishdan qutqaribgina qolmasdan, ayni paytda AQShning iqtisodiy yordamlariga zamin yaratardi.²⁹

Turk burjuaziya yuqori qatlamining tez suratlarda boyib ketishi inflyatsiya

²⁸Ozan Örmeci. Türkiye'nin Çok Partili Sisteme Geçiş, Erişim Tarihi. -Ankara: Siyasal Kitapevi, 2011, - s78.

²⁹Çetin Yetkin. Türkiye'de askeri darbeler ve Amerika – İstanbul, 2010, s 57.

darajasining o'sishiga, narxlarning oshishiga, ishsizlikka olib keldi. Bularning hammasi tezda mamlakatda ijtimoiy noroziliklarni keltirib chiqaradi, faqatgina mullka ega bo'lmagan qatlamning noroziligini emas, balki ziyolilar, harbiylar va o'rta qatlam vakillarining noroziligiga sabab bo'ladi. Demokratik partiya esa bunga javoban konstitutsiya bilan hisoblashmasdan repressiyani kuchaytiradi, qirg'inlar uyushtiradi, sud jarayonlarini tashkil qilishadi. Xalq bilan kurash, ya'ni hurfikrli turk fuqarolari bilan kurash "kommunizm bilan kurash" bayrog' ostida o'tkazildi.³⁰ 1951 yilda hukumat Jinoyat kodeksiga o'zgartirish kiritdi: demokratik rejimga va dunyo siyosatiga qarshi chiqqan kurash qatnashchilari uzoq muddatli qamoq jazosiga, bu kurash rahbarlari esa o'lim jazosiga tortilishi nazarda tutildi. 1954 yilda oppozitsiya ruhidagi va mustaqil nashrlarga qarshi repressiya to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Demokratik partiya hokimyatini mustahkamlash uchun barcha choralarni qo'lladi, oppozitsiya faoliyatini cheklab qo'ydi. 1956yil iyun oxirida TBMM yig'ilishlar va namoyishlar haqida qonun qabul qildi, qaysiki hukumat ruxsatisiz barcha ochiq va yopiq yig'ilishlar va namoyishlar ta'qiqlandi.³¹ Saylovoldi kampaniyasi davomida Demokratik Partiya o'zining siyosiy maqsadlari yo'lida dinning ta'sirida foydalangan holda saylovchilarni o'ziga og'dirishga harakat qildi. 1957 yil sentabr oyida majlis oppozitsiya partiyalarga saylovlarga yagona ro'yxat bo'yicha chiqishni ta'qiqlovchi qonunni e'lon qildi. 1957 yil 27 sentabrdagi saylovlar juda ham og'ir bir davrda bo'lib o'tdi. Demokratik Partiya saylovdan oldin qonunlarga bir qancha o'zgartirishlar kiritadi va muxolifatning saylovda qatnashishiga to'sqinlik qiladi. JXPning e'tiroziga ko'ra, saylovchilar ro'yxatga olinmagan va ba'zi qutilarda saylov natijalari almashtirib qo'yiladi. Kayseri, Giresun, Chanoqqal'a va Samsunda namoyishlar bo'lib o'tadi va noroziliklar kuchayadi. Gaziantepda esa radio va gazetalar dastlab JXPning g'alabasini e'lon qiladi, biroz vaqt o'tgandan keyin "qishloqdan berilgan ovozlar" bilan saylovnatijalarini Demokratik

³⁰Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - МОСКВА:крафт ИВ РАН, 2007, стр 302.

³¹Tevfik Çavdar.Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara :İmage Kitabevi, 1996, s 112.

Partiyaning g'alabasi deb o'zgartirib e'lon qiladi.³² JXPning e'tirozi tufayli saylov natijalari Gaziantep Adliyasi binosiga olib kelinadi, lekin bu natijalar Gaziantep Adliyasi binosi bilanr yondirib yuboriladi. Demokratik Partiya "Antep voqeasi" tarqalishiga qattiq to'sqinlik qiladi.

Demokratik Partiya ovozlarning 47,88 foizini olib parlamentda 424 o'rinni egallaydi. Ismet Inenyu boshchiligidagi Jumxuriyat Xalq Partiyasi esa 41,09 foiz bilan 178 deputatlik o'rinni egallaydi. Jumxuriyatchi Millat Partiyasi va Xurriyat Partiyasi to'rttadan o'rinni egallaydi.³³ Muxolifatning umumiy to'plagan ovoz miqdori Demokratik Partiyani ortda qoldirardi. Saylovlardan keyin siyosiy muhitdagi keskinlik yanada ortdi. JXP mamlakatda qo'llab – quvvatlana boshladi. Bundan oldingi saylovda 35 foiz ovoz to'plagan JXP bu galgi saylovda esa 41 foiz ovoz to'playdi. Demokratik Partiya esa 1954 yildagi saylovda to'plagan 57 foiz ovozini bu galgi saylovda 47 foizga tushirib qo'yadi. Hukmron Demokratik Partiya va bosh oppozitsiyachi partiya – JXP o'rtasidagi konflikt yanada kuchaydi. Endi bu partiyalarning rollari almashti, JXP o'zining hujumlarini Demokratik Partiya qabul qilgan antidemokratik va avtoritar qonunlarga qarshi to'pladi.

Hukumat yangi qonunlar va qarorlar "mas'ulyatsiz jurnalistlarning" tartibsizlik keltirib chiqaradigan ig'volarini oldini olish uchun kerak bo'lganligini tasdiqladi. Ikki asosiy siyosiy partiyalarning majlisda hamkorlik qila olmasligi amalda parlament ishini to'xtatib qo'ydi. Ko'chalarda politsiya Inenyu bilan uchrashuvga kelgan JXP a'zolarini va boshqalarni kaltaklay boshladi, ularga qarshi gaz va ko'zni yoshlantiruvchi granatalardan foydalanishdi. Misol uchun Tokata viloyati Zil shahrida 1958 yil 17 oktabrda politsiya JXP a'zolari va tarafdorlariga Inenyuni kuzatish uchun ko'chaga chiqishini ta'qiqlab qo'ydi.³⁴ Yana to'qnashuv sodir bo'ldi, politsiya yana kaltaklardan, ko'zni yoshlantiruvchi gazlardan foydalanishga majbur bo'ldi. 1959 yil 30 aprelda hokimyat Ushak shahrida

³²Dr. İrfan Neziroğlu. Türkiye'de askeri müdahaleler ve basın (1950-1980) – İstanbul: 2003, s 76.

³³Mehmet Kabasakal, Türkiye'de Siyasal Parti Örgütlenmesindeki Kısıtlamalar. Tesav Sempozyumu: Siyasi Partiler Ve Demokrasi.- Ankara: Tesav Yayını, 1995, s 115.

³⁴Данилов В.И. «Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжатется» - М:Восток,1998, стр 87.

Inenyuga qarshi suiqasd uyushtirdi, natijada esa u boshidan jarohat oldi.³⁵ Bir necha kundan keyin 1959 yil 4 may kuni Istanbulda Topkapi tumanida hukmron partiyaning 5 mingga yaqin a'zolari tosh va tayoqlarni Inenyu mashinasiga qarab uloqtirishdi, uni harbiylar qutqarib qolishga erishdi. 1960 yil bahorida hukumatga qarshi chiqish ommaviy tus oldi, ayniqsa unda asosiy rolni talaba yoshlar o'ynashdi.³⁶ 19 aprel kuni Anqarada hukumatning antidemokratik harakatlariga qarshi ko'pminglik namoyish bo'lib o'tdi, 28 aprel kuni esa Boyazid maydonida politsiya Istanbul universiteti talabalari namoyishini o'qqa tutdi. Ulardan bir qanchasi yaralandi, bir kishi esa halok bo'ldi.

Keyingi kuni Anqarada Anqara universiteti talabalarining norozilik namoyishi bo'ldi, namoyish siyosiy fanlar va huquq fakultetlari binolarida boshlandi. Bu yerda politsiya namoyishchilarga qarshi hujum boshlashdi va bir qancha talabalar yaralanishdi. Keyin esa fakultetlar binolari portlatib yuborildi va "tartib" o'rnatishdi. Shundan keyin ko'pgina talabalar, talabalar namoyishining asosiy markazi bo'lgan Qiziloy maydoniga yo'l olishdi. Hukumat Anqara va Istanbulda favqulodda holat joriy qildi. Qamoqqa olishlar boshlandi. Yuzlab talabalar axloqni tuzatish koloniyalariga jo'natildi. Lekin hukumatning hech bir chora – tadbirlari talabalar noroziligini to'xtatib qololmadi. Anqaradagi Qiziloy maydonida har kuni talabalar to'planishdi va "qo'paruvchilikka oid" faoliyatni tergov qilish bo'yicha komissiyani tuzish to'g'risida qabul qilingan qonunni bekor qilishni talab qilishdi.

Menderes hokimyatining so'nggi yillarida Marshal rejasi bo'yicha boshqa kreditlar berilmaydi va Seydishehirdagi Alyuminiy va Iskanerundagi temir va boshqa sanoat loyihalarini kreditlash uchun Sovet Ittifoqi bilan yaqinlasha boshlaydi.³⁷ Bu maqsad bilan Sovet Ittifoqiga bir qancha rasmiy tashriflar qilinadi, mamlakat sanoati rivoji uchun investitsiya jalb qilish haqidagi shartnomalar tuziladi. Demokratik Partiyaning davomchisi sanalgan Adolat Partiyasi

³⁵Korkut Baratov, *Türkiye'de Devletçelik Savaşı* - Ankara: Aydin, 1982, s 135.

³⁶Dr. Asena Boztaş. *Türk Demokrasisine müdahaleler*. Mustafa Kemal Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. – Ankara: 2012, s 5.

³⁷Dr. Idris Bal. *Askeri darbeler ve Türk dış politikası*. - Ankara, 2011, s 89.

to'ntarishdan 5 yildan keyin yakka o'zi hokimyatga kelganida Adnan Menderes davrida loyihlari tuzilib kredit yo'qligi tufayli amalga oshirilmagan bu loyihalar Sovet Ittifoqidan olingan kreditlar tufayli oxiriga yetkaziladi.

3 may kuni turk harbiy kuchlari quruqlikdagi qo'shin komandiri Jamol Gursul milliy mudofaa vaziri Etem Menderes nomiga "mamlakatni, hukumatni va demokratik partiyani qiyin vaziyatdan qutqarish" uchun shoshilinch choralarni ko'rish kerak mazmunidagi xat jo'natadi.³⁸ Respublika prezidenti va hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish, Anqara va Istanbul xavsizligi boshqarmasi gubernatorlari va boshliqlarini almashtirish, tergov qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risidagi qonunni bekor qilish, qamalga talabalar va jurnalistlarni ozod qilish kabilar bo'lishi mumkin. Gursulning xati mudofaa vaziriga ham, Menderesga ham hech qanday ta'sir qilmadi, amalda bu armiyaning ultimatumini bo'lsa ham. Gursulga qachonlardir so'ragan iste'fosi qabul qilingani xabar qilindi. Politsiyaga yordamga qo'shin yetib keladi. Natijada to'qnashuvda yaralanganlar va o'lganlar bo'ladi. Yana bir qattiq namoyish poytaxtda 1960 yil 4 mayda sodir bo'ladi.³⁹ Namoyish joyiga yetib kelgan bosh vazir Adnan Menderes namoyishchilar bilan kelishishga harakat qiladi, lekin g'azablangan bir yosh odamning qo'lidan bomba portlab ketadi. Politsiya namoyish qatnashchilarini qattiq kaltaklaydi. "Oxirgi harakat" uchun politsiyachilarga shaxsan Anqara harbiy komendantining buyrug'iga binoan 250 ming lira ajratiladi. Bunday shiddatli kunlarda Menderes mamlakat bo'ylab sayohatga chiqadi. Bu sayohat Anqara va Istanbuldagi voqealar Aholining unga bo'lgan haqiqiy munosabatini aks ettirmasligini ko'rsatib berdi. Haqiqatan, 14 may kuni kechasi u kemada Chanoqqal'aga keladi, uni yuzlab qayiq va katerlarda odamlar qarshi oladi, yanashunday uchrashuvlardan biri Izmirda tashkil qilinadi.⁴⁰ Bu uchrashuv haqida

³⁸Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - МОСКВА:крафт ИВ РАН, 2007, стр 302.

³⁹Anvar Qosimov. Hozirgi Turkiya. - T: O'zbekiston, 1992, - 35 b.

⁴⁰Tevfik Çavdar. Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara :İmage Kitabevi, 1996, s 118.

⁴¹Talat Aydemir. Talât Aydemir'in Hatıraları.- Akşam Kitap Kulübü Yayınları, 196, s 58.

Aydemir shunday yozadi:⁴¹ “Qirg’oqqa yaqinlashishiga bir soat qolganida kemani yuzlab qayiq va katerlar o’rab oladi. Minglab izmirliklar xuddi kelin misoli kemani kutvolishga chiqadi. Qirg’oq bo’yi va maydonlar xuddi odamlar dengiziga o’xshab ketadi. Uchrashuvga kelganlar soni 20 000 mingga yetadi, Egey tumanidan yetib kelganlar Izmir aholisiga kelib qo’shiladi”. Izmirda chiqish qilgan Menderes mamlakatda 15 kundan beri davom etib kelgan to’polonlar tugaganini va aybdorlar “gunoh va jinoyati uchun” javob berishlari boshlanganini e’lon qiladi. Xuddi shunday maqsad bilan u Anqaraga qaytib keladi. Uning fikrlari qanchalik xato ekanligini keyin bo’lib o’tgan voqealar ko’rsatdi. Boyar – Menderes hokimiyati turk armiyasida norozilikni keltirib chiqardi. Bu hokimiyat qanaqadir yangi bir fuqarolik hokimiyati sifatida yashirini tarzda o’zini harbiylarga qarshi qo’yadi. Bundan tashqari norozi bo’lgan harbiylarning bir qismi, ayniqsa talabalarga xahrixohlik qilgan yosh ofitserlar Boyar – Menderes hokimiyati Otaturk prinsiplarini toptab tashaganday hisoblashdi. Keng xalq ommasining noroziligiga olib kelgan va boylar uchun umuman kerak bo’lmagan voqealarni keltirib chiqishga sabab bo’lgan bu rejimning yo’lboshchilari o’zlarining keskin harakatlari bilan mamlakatda shunday vaziyat yuzaga kelishiga zamin yaratishdi deb hisoblagan mavjud tuzumga qarshi generallarning bir qismi katta sahnaga chiqishdi. 1960 yil 3 mayda General Jamol Gursul Etem Menderesga xat jo’natganida buning hammasi ko’rinib turgan edi. 21 – may kuni hukumatga qarshi norozilikka ochiqdan – ochiq armiya kelib qo’shiladi: Anqara harbiy ta’lim maskanining minglab kursantlari namoyishga chiqishadi.⁴² Kursantlarga mudofaa vazirligi, bosh shtab va armiya qo’shilmalaridan minglab ofitserlar kelib qo’shildi. Qiziloy maydoniga kelishda namoyishchilar Chankayyadagi prezident saroyiga qarab harakat qilishmoqchi bo’lishdi, lekin bunga komandirlarning aralashuvi xalaqit berishdi. Poytaxtdagi vaziyatga to’g’ri baho bermagan Menderes 25 may kuni poytaxtni tashlab chiqib ketishga majbur bo’ladi. Konyaga uchib ketadi. Bu shahar ham xuddi Izmir kabi Demokratik Partiyani qo’llab – quvvatlar

⁴²Numan Esin. Devrim ve Demokrasi - Bir 27 Mayısçının Anıları – Ankara: Doğan Kitap, 2005, s 45.

edi. Menderes samolyoti Eskishehirda to'xtab o'tdi. Bu shaharda harbiy – havo maktabi joylashgan edi. Menderes samolyot atrofida qator tizilgan ofitserlardan o'tib samolyotini oldiga borishga ulgurolmadi. Eskishehirda dushmanlik atmosferasi hukmron edi. Menderes minbarga shahr aholisi oldida so'zga chiqqanida mikrofon simi kesilgan edi. Kechqurun shakar zavodida bosh vazir sharafiga qilingan qabulda hukumat rahbarlari Menderesga e'tibor berishmadi. O'sha kuni Anqaradan majlis raisi Refik Koraltan qo'ng'iroq qildi va Istanbulda universitet professorlarining namoyishi bo'layotganini xabar qildi.⁴³ Bu telefon qo'ng'irog'idan keyin zalga qaytib kelganda, Menderes Turkiya bosh vaziri sifatida o'zining oxirgi ma'ruzasini qilayotgandi. U yana namoyishchilarga qarshi hujum boshladi. Bu vaqtda Anqarada esa harbiy maktab binosida bo'lajak to'ntarish rahbarlari yig'ilishdi. Bu yerda bir qancha harbiy qo'shilmalar qo'mondoni Jamol Madanoglu, tank brigadasi komandiri general Bashtug, polkovnik Alparslon Turkesh, harbiy maktab o'qituvchisi va boshqa ko'pchilik bor edi. Hukumatga qarshi qurolli chiqish haqida qaror qabul qilindi. O'sha oqshom Anqaraning ko'plab aholisi uxlashmadi: ko'cha va maydonlarga harbiy qismlar joylashtirildi. Ko'rinib turibdiki, harbiylar qo'zg'aldi, lekin kim qo'zg'olonni boshqarayapti hech kimga ma'lum emasdi. Yarim kechasi Ismet Inenyuni uyg'otishganida va armiya chiqishini xabar berishganida u birinchi "kim boshida" deb so'raydi. Demokratik Partiya tuzumiga qarshi bo'layotgan qurolli chiqishni polkovnik A. Turkesh boshchiligidagi ofitserlar guruhi amalga oshirayotganini o'sha kecha bilish unga nasib qilmaydi. 26 maydan 27 mayga o'tar kechasi kursantlar harbiylar uyiga yo'l olishadi va quruqlikdagi qo'shin komandiri Suat Kuyashni va Anqara harbiy komendanti Namiq Arguchni qamoqqa olishadi. O'sha uylarning birida bosh shtab boshlig'i Rushtu Erdelxun ham qamoqqa olinadi. Beshta boshqa tanklar esa shahar markaziga qarab yo'l olishadi va Radio va Pochta Telefon Telegraf binosini ham qurshab oladi. Radio binosida qo'riqchilar bilan otishma sodir bo'ladi va hujumda qatnashayotgan leytenant Kalmaz halok

⁴³Akşin Sina. Kısa Türkiye Tarihi.- İstanbul.: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008, s 187.

bo'ladi.⁴⁴Bu to'ntarish qatnashchilari orasidagi yolg'iz yo'qotish edi. Otishma yana TBMM, Vazirlar kengashi, ichki ishlar vazirligi va bosh xavfsizlik boshqarmasi binolarini egallashda ham sodir bo'ldi. Bir vaqtning o'zida qamoqqa olishlar ham boshlandi. Bir qanchalar yashirinishga harakat qilishdi. Ichki ishlar vaziri Gedik tomdan topiladi, tashqi ishlar vaziri esa haydovchisining qaynotasining uyida yashiringani ma'lum bo'ladi. 27 may kuni ertalab Turkiya radiosi orqali gapirishadi. "Diqqat, diqqat!" Hurmatli fuqarolar! Radioningiz oldiga yaqinlashing. Bir necha daqiqadan keyin siz ishongan harbiy kuchlar sizga murojaat qilishadi. Chaqiruv bir necha marotaba takror qo'yiladi, keyin yana murojaat qilishadi. "Yurtimizda vujudga kelgan inqiroz va oxirgi ayanchli voqealar tufayli, shuningdek bir – birimizni o'ldirishning oldini olish maqsadida Turk harbiy kuchlari hokimyatni o'z qo'llariga olishdi". Murojaat davomida harbiylar chiqishini qo'llab – quvvatlashga chaqirildi. Murojaatning oxirgi qismida Turkiya ittifoqdoshlari, qo'shnilari ham murojaat qilishdi. BMT prinsiplariga va Otaturk ko'tarib chiqqan shiorlarga ishonch tasdiqlandi. "Mamlakatda tinchlik, dunyoda tinchlik!". Murojaatda yana: "Biz hamma ittifoqchilarimizga va majburiyatlarimizga sodiqmiz. Biz NATOga ishonamiz va unga qo'shilamiz, SENTOga qo'shilamiz" degan gaplar ham bor edi. Bir qancha vaqtdan keyin majlisning tarqatib yuborilganligi, hukumat a'zolarining qamalanganligi, siyosiy partiyalar faoliyati ta'qiqlab qo'yilganligi e'lon qilinadi. To'ntarish bo'lgan oqshomda Adnan Menderes va moliya vaziri Xasan Polatkanlar Eskishehirda vaqt o'tkazishayotgandi. Anqaradagi bo'lib o'tgan voqealardan xabar topgandan keyin ertalab Kutaxga ketishadi. Yo'lda ular orqaga burilgan, bosh vazir mashinasi ustida uchib ketayotgan harbiy samolyotni ko'rishadi. Kutaxda Menderes gubernatordan uning hukumati ag'darilganligini biladi. Aynan o'sha vaqtda gubernator uyiga ofitserlar guruhi yetib keladi va Menderesga qamoqqa olinganini aytadi. Sobiq hukumat rahbari qo'riqchilar qurshovi ostida Eskishehirda jo'natiladi, u yerdan esa harbiy samolyotda Polatkan bilan birga Anqaraga olib kelinadi.⁴⁵ 27 may kuni soat

⁴⁴Dr. İrfan Neziroğlu. Türkiye'de askeri müdahaleler ve basın (1950-1980).- İstanbul, 2003, s 96.

⁴⁵Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА.» - МОСКВА:кرافт ИВ РАН, 2007, стр 302.

4 da Turkiya radiosi orqali to'ntarish rahbari, tuzilgan Milliy Birlik Qo'mitasi raisi general Jamol Gursul chiqish qiladi.⁴⁶ Gursul yana bir bor armiya chiqishining sabablarini tushuntiradi va qo'mitaga ishonch bildirishlariga chaqiradi.

1.3. 1960 yil 27 maydagi harbiy to'ntarishning sabablari va uning oqibatlari

Demokratik Partiya hokimyat tepasiga kelishi bilan mamlakatda bo'layotgan jarayonlardan chetga chiqishni boshladi, arab tilida azon o'qishni bekor qildi, dars mashg'ulotlarini din asosida olib borishga qaytishni ta'minladi. Anqara, Istanbul, Adana, Isparta, Marasha, Konya, Kayserida diniy maktablar ochildi. Bu jarayonlar turk armiyasining noroziligiga sabab bo'ldi.⁴⁷ Hukmron partiyaning bunday siyosat yuritishi go'yoki orqaga ketish, respublika mavjudligiga rahna solish armiyaning qo'zg'alishiga olib keldi. Demokratik partiyaning tashqi siyosatida Turkiyaning NATO, SENTOga kirishi, BMTda AQSHni qo'llab – quvvatlashi Otaturkning tashqi siyosatda neytral bo'lish konsepsiyasining buzilishi edi. Bu davrda harbiy xarajatlarning o'sishi, AQSH siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaramlikning kuchayishi, yuqori qatlamning tezda boyib ketishi, ishsizlar sonining ko'payishi, inflyatsiya darajasining ko'tarilishi (1946 – 1952-yillardagi o'rtacha yillik ko'rsatkichi 2,2 foizdan 1953 – 1959-yillarda 17 foizga oshdi) Turkiyaning og'ir iqtisodiy muammolar girdobiga tushib qolishi, “importdan qutulish” siyosati, 1958 yilda defolt holatini e'lon qilish – barcha bu faktorlar aholi o'rtasida norozilikni keltirib chiqardi.⁴⁸ 1950 yillarning oxiridan boshlab xalq DP ni qo'llab-quvvatlashni susaytira boshladi. Buning asosiy sababi tashqi bozorlardagi qulay konyunkturaning tugashi va iqtisodiyotdagi buzilishlar edi. Tez sur'atlarda yuksalayotgan inflyatsiya, shahar axolisi, armiya va davlat tizimidagilarning moddiy ahvoliga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Boyar-Menderes hukumatidan ko'pchilik norozi bo'ldi. Mamlakatda korrupsiya, talon-toroj avj oldirilgan edi. Mamlakatda

⁴⁶Mehmet Şükran Özkaya. Adım Adım 27 Mayıs.- İstanbul: İleri Yayınları, 2005, s 45.

⁴⁷Orhan Erkanlı. Anılar...Sorunlar...Sorumlular - 27 Mayıs 1960 - 12 Mart 1971 Türkiye.- Ankara:Baha Matbaası, 1972, s 53.

⁴⁸Ceyhun Haydarog'lu. Türkiye'de darbelerin ekonomi politig'i.– Eskişehir, 2011, s 35.

mavjud rejim ustida bahslar kuchaydi. Universitetlarning talablari ko'chalarga namoyishga chiqdi. 1960 yil 20 aprelda Istanbul universitetining talabalari ommaviy jabr-zulmga qarshi norozilik belgisi sifatida miting o'tkazishdi. Ertasi kuni talabalarning ko'p kishilik namoyishi bo'lib o'tdi. Politsiya ularga qarshi o't ochdi. Istanbulgi tinch namoyishning o'qqa tutilishi umumiy qahr-g'azab uyg'otdi. Mamlakatning hamma tomonlaridan norozilik arznomalari tusha boshladi. Mamlakatdagi siyosiy vaziyat yanada keskinlashganligidan favqulodda holat e'lon etildi.⁴⁹

Shunday qilib, 1960 yilning 27 mayida armiya boshchiligida Otaturk prinsiplariga qaytish shiori ostida davlat to'ntarishi muvaffaqiyatli bajarildi. Hokimiyat to'ntarish o'tkazgan yangi tashkilot — Milliy birlik qo'mitasi (MBQ) qo'lga o'tdi. Mamlakatning vaqtinchalik konstitutsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra, MBQ oliy qonun chiqaruvchi organ deb e'lon qilindi. Unga J. Gursul raislik qildi va u vaqtinchalik hukumatni ham boshqardi. Bu to'ntarish 37 ta harbiylar rejasi asosida amalga oshirildi. Generallar hokimiyatni qo'lga olib o'zlarining qatorlarini mustahkamlash bo'yicha tezda chora ko'rishdi. 1960 yil noyabrda to'ntarish qatnashchilari, Turkesh bilan bir qatorda Milliy Birlik Qo'mitasi ichidagi J. Gursulning radikal – milliy muxolifatini fuqarolik boshqaruviga o'tish fikrlariga qarshi bo'lganligi tufayli Milliy Birlik Qo'mitasidan chiqarilib yuborildi va iste'fo berildi, keyin esa chet elga diplomatik ishga jo'natildi. Qolaversa, A. Turkesh 1963yilga qadar Dehlidagi turk elchixonasida maslahatchi lavozimida ishlashga majbur edi. 1960yilgi to'ntarish tashabbuskorlari yosh ofitserlar edi.⁵⁰ Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ulardan bir qanchasi ko'ppartiyaviylik tizimiga qarshi bo'lishgan, ochiqdan – ochiq avtoritar hokimiyatni afzal ko'rishgan. Ma'lumki, turk ofitserlar korpusi an'anaviy ravishda davlatini harbiy kuch bilan tan oldirishdi, ofitserlar o'zlarini “milliy erkinlik”ni bajaruvchilari deb hisoblashgan. Kommunistlarga va islomga qarshi ularning qarashlarini tashkil qilgan muhim elementlardir.

⁴⁹Ali Fuad Başgil (çev. Mehmet Ali Sebük ve İsmail Hakkı Akın). 27 Mayıs İhtilali ve Sebepleri.- Çeltüt Matbaası, 1966, s 76.

⁵⁰Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - МОСКВА:крафт ИВ РАН, 2007, - С 310.

Vaqtinchalik hukumatni shakllantirishda MBQ nazorati ostida 28 may kuni 3 general va 15 ta oddiy fuqaro hukumatga kirdi. Jamol Gursul bosh vazir lavozimini egalladi va milliy mudofaa vaziri bo'ldi. Tez orada yangi konstitutsiya matnini tuzish bo'yicha komissiya tuzildi. Generallar mashhur va obro'li professorlarni to'plashdi, bu komissiya konstitutsiya loyihasini tayyorlashdi. Shu orada harbiy o'qishda yig'ilganlar hukumatning sobiq a'zolari, sobiq deputatlar o'zlarining qatnashishi qarorini kutishardi.²⁷ maydagi to'ntarishdan keyin prezident Jalol Boyar, bosh vazir Adnan Menderes, hukumat a'zolari va muhim qo'mondonlardan biri bo'lgan Alu Fuat Jebesoy ham bo'lgan Demokratik Partiya deputatlari, partiya boshqaruvchilari, askarlar va ba'zi yuqori darajadagi jamoat tashkilotlari vakillari qo'lga olinib Yassi oroliga olib boriladi.⁵¹ Qamoqdagilardan biri bo'lgan Demokratik Partiyaning sobiq deputati G'iyosiddin Emre boshiga tushganlarni shunday izohlaydi: "Harbiy aeropotda samolyotdan tushyapmiz. Ovqatlanayotganda gaplasholmasdik. Gaplashgani uchun kaltak yeganlar ko'p bo'ldi. Har kun ertalab qum solingan, kechqurun esa tosh solingan ovqat berishardi". Qamoqdalik paytida Demokratik Partiya a'zolaridan Yusuf Salman, Lutfi Kirdar, Gazi Yigitbashi, Yumnu Uresin, Nuri Yamut va Kenan Yilmazlar halok bo'lishdi.

Pastki qavatdagi kuchli qo'riqlanayotgan alohida xonada Boyar, Menderes va Koraltanlar bor edi. Ulardan biri, ichki ishlar vaziri Namiq Gedik 29 may kuni oqshomda o'z joniga qasd qiladi. O'sha binoning uchinchi qavatida u bilan birga bo'lgan boshqa asir Menderesning so'zlariga qaraganda, u singan oynaning ovozidan uyg'onib ketgan va tezda tushunganki uning hamrohi oynadan o'zini tashlab yuborgan, hatto oynani ochishga harakat ham qilmagan. Bu yerda qamoqdagilarga og'ir azob va qo'pol muomala qilinganligi taxmin qilinadi. Og'ir azob va bunday muomala natijasida Jemil Kelesheog'lu va Namiq Gedik o'z jonlariga qasd qilgani ma'lum bo'ldi.⁵² Demokratik Partiya advokatlaridan bo'lgan Husamettin Jindoruk Namiq Gedikning o'limi shubhali ekanligi aytib o'tdi:

⁵¹Haydar Tunçkanat. 27 Mayıs 1960 Devrimi (Diktadan Demokrasiye).- İstanbul: Çağlayan Yayınevi, 1996, - S 86.

⁵²Numan Esin. Devrim ve Demokrasi - Bir 27 Mayısçının Anıları.- Ankara: Doğan Kitap, 2005, s 65.

“Namiq Gedikning o’limida zo’rluk alomatlari bor. Uning oilasi uning o’z joniga qasd qilganiga umuman ishonishmadi”.Keyinchalik esa uning xayrlashuv xati aniqlandi. Qamalganlar orasida ko’prog’ini (600 ga yaqin) yuristlar tashkil qilgan, ulardan keyin savdogarlar, keyin yer egalari, doktorlar, ma’murlar, harbiylar, jurnalistlar, diplomatlar va boshqalar. Tez orada qamalganlar Marmara dengizidagi Yassi oroliga harbiy turmaga jo’natiladi. Kechroq 9 – iyun oqshomida Yassi oroliga yuqori darajadagi harbiylar qo’riqlashi ostida Jalol Boyar va Adnan Menderes jo’natiladi. Ularning orasida ko’pchiligi o’lib ketishadi.Jalol Boyar o’zini o’zi o’ldirishga urinib ham ko’radi. Yassi orolida sud 1960 yil 14 oktabrda boshlanadi va 1961 yil 15 sentabrgacha davom etadi. 15 ta o’lim hukmi chiqariladi. Ularni ko’rib chiqadigan bo’lsak, MBQ 1961 yil 16 sentabrda jamoatni qisman yumshoqlikka chaqirish maqsadida Boyarning o’lim hukmi va boshqa 11 ta kishiniki umrbod qamoq jazosiga o’zgartiriladi, lekin Menderes va sobiq ichki ishlar vaziri Fotix Rushtu va moliya vaziri Xasan Polatkanning hukmlari o’z kuchida qoldiriladi va keyinchalik amalga oshirildi.⁵³

Sud ishi davom etayotgan bir mahalda harbiylar hokimiyatning yangi organlarini tuzishni davom ettiradi, siyosiy partiyalar tashkil qilishga ruxsat etildi. 1961yil yanvarda ta’sischi majlisi bo’lib o’tdi, uning ishida MBQ qatnashdi. Bu vaqtinchalik qonun chiqaruvchi organ may oyida yangi konstitutsiyani qabul qildi va keyin 9 iyulda umumxalq referendumiga taqdim qilindi. U saylovchilarning 60 foizi tomonidan ma’qullandi, bu narsa esa MBQ a’zolarini sarosimaga solib qo’ydi. Bu esa tarqatib yuborilgan Demokratik partiyaning saqlanib qolinishiga olib keldi, ayniqsa uncha katta bo’lmagan shaharlarda va qishloq saylov okruglarida. 12 735 kishi qonuniy saylash huquqiga ega edi, referendumda 10323 saylovchi qatnashishdi.Konstitutsiyani ma’qullab 6349 kishi ovoz berishdi, qarshilar esa 3934 kishi edi. Ovozlarining bunday taqsimlanishi shuni ko’rsatdiki, ayniqsa Turkiyaning g’arbiy va shimoliy tumanlarida Sobiq demokratik Partiya

⁵³Sıtkı Ulay. 27 Mayıs 1960 Harbiye Silah Başına - General Sıtkı Ulay'ın Hatıraları – İstanbul Kitapçılık Ticaret Ltd. Şti. Yayınları, Akşam Kitap Kulübü Serisi, 1968, - S 127.

tarafdorlarining ta'siri hali-hamon kuchli edi.

1961 yil 6 oktabrda MBQ va Vakillar majlisidan iborat Majlis tashkil qilinadi. Keyinroq esa Enver Ziyo Karal va Turhan Feyziog'lu boshchiligida 20 kishidan iborat qo'mita tuziladi va yangi konstitutsiya tuzish uchun harakatlar boshlanadi. Yangi tayyorlangan konstitutsiyada 1924 yilgi konstitutsiyadan farqli ravishda xalqchilik, davlatchilik va inqilobchilikka o'rin berilmadi. 1961 yil 9 iyundagi referendum natijasida 1961 yilgi konstitutsiyani yoqlab 61,7 foiz ovoz yig'ilgan bo'lsa-da, ba'zi akademiklar va mutaxassislarning 40 foizga yaqini rad javobini berdilar va bu javobda jon borligini isbotlashga urindilar. Konstitutsiyaning jamiyatning muhim qatlami tomonidan qo'llab – quvvatlanmaganligini bahona qilib ko'rsatishdi. 1961 yilgi konstitutsiya amalda 1924 yilgi konstitutsiyadan farq qilardi. U davlat va jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirardi, Siyosiy erkinliklardan foydalanish uchun (garchi cheklangan bo'lsa-da) imkoniyatlar ochib, bir necha o'n yilliklar davomida sodir bo'lgan, fuqarolarning oddiy burjua huquqlari, albatta, borgan sari eskirayotgan edi. Yangi Konstitutsiya Turkiya Respublikasini siyosiy partiyalar va boshqa demokratik erkinliklarni barpo etish huquqini tasdiqlovchi, milliy demokratik, dunyoviy, ijtimoiy va huquqiy-davlat deb e'lon qildi. Shunday qilib, boshqaruv shaklini respublika, dunyoviy, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mustaqilligini, vakillik organlarining tanlanishini va o'zgarishini tasdiqladi. Konstitutsiya chinakamiga demokratik emas edi, masalan, milliy ozchiliklarning muammolarini hal qilmagan edi, hammasidan oldin kurdarnikini, siyosiy Islom va radikal turkchilikning huquqiy faoliyatiga yo'l ochdi. Biroq, unda e'lon qilingan huquq va erkinliklar mamlakatning demokratik kuchlariga ayrim ijtimoiy va boshqa huquqlari uchun kurashish imkonini berdi. Unda alohida dunyoviylik tamoyillari sanab o'tilgan: ta'lim olish huquqi, ibodat qilish huquqi o'zining diniy his-tuyg'ularini e'lon qilish yoki qilmaslik kabi.

XIX asrda siyosiy va shaxsiy maqsadlar uchun diniy his-tuyg'ulardan foydalanish ta'qiqlangan edi. Konstitutsiya ijro hokimiyatini kuchaytirib yubordi, TBMM tuzilishini o'zgartirdi, eng muhimi, hozirgacha Konstitutsiyaviy sudiga

noma'lum Turk qonunini berdi. Ayniqsa, Turkiya davlatining kapitalistik rivojlanishining davlatning iqtisodiy tamoyillari batafsil sanab o'tdi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini shakllantirishda davlatning hal qiluvchi roli ekanini ko'rsatib o'tdi. Mulkchilik masalalariga, iqtisodiyotga davlat aralashuvi alohida bo'linga berildi. 1961-yilgi Konstitutsiyasining 36-moddasida "har kim mulk egasi bo'lish va meros huquqiga ega." deyilgan. Davlatning Iqtisodiy hayotga aralashuvidagi belgilanmagan cheklovlarni bu hujjat o'z ichiga olmagan, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari, 53 – moddada belgilanganidek, "o'zining iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy manbalari ko'lami"ga muvofiq keladi.⁵⁴

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotga davlatning keng aralashuvini e'tirof qilish - shubhasiz Turkiya rivojlanish darajasining klassik shakldan farq qilishidan dalolatdir, ya'ni o'zida g'arb burjua tizimini namoyish etgan. 1961-yilgi konstitutsiyaning o'ziga xosligi shundaki, Turkiya sharoitida ijtimoiy qatlamda byurokratiya va chinovniklarning barcha darajalarini qanaqa bo'lganliklarini ko'rsatib o'tgan. Hujjat, shuningdek, davlat ma'muriyatining turli xil bosqichlari va davlat xizmatchilarining ma'qomi va javobgarligi haqidagi holatni ham o'z ichiga olgan. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga davlat aralashuvi instituti 1961 yilgi mamlakat konstitutsiyasida, birinchi etatizmni himoya qilganlar, konstitutsiyaviy qoidalarni butun tizimida tarqatilishi edi.⁵⁵ Mamlakatda 1961 yil 24 sentyabr Majlisga saylovlarga rasman to'rtta partiya saylovoldi kampaniyani boshladi, qaysiki ishtirok etish uchun ruxsat etilgan nufuzli Xalq respublika partiyasi (JXP) va Adolat Partiyasi (Ap), va kam sonli - Yangi Turkiya Partiyasi (YTOP) va Respublika qishloq Milliy Partiyasi (RQMP). Boshqa partiyalarga saylovoldi kampaniyalarini tashkil qilish muvaffaqiyatsiz tugadi. Saylov natijalari JXP Milliy Assambleyada 173 o'rin va faqat Senatda 36 o'rin egallashini ta'minladi. Demokratik Partiyaning vorisi bo'lgan Adolat partiyasi quyi palatada 158 o'rin va yuqori palatada esa 70 o'rinni egalladilar. Qolgan o'rinlar esa, uzoq muddat mavjud bo'lmagan va oqibatda boshqa partiyalarga qo'shilib

⁵⁴27 mayis darbesi raporu – Istanbul: 2012, s 118.

⁵⁵Ceyhun Haydarog'lu. Turkiye'de darbelerin ekonomi politig'i. – Eskişehir, 2011, s 65.

ketgan YTP va RQMP o'rtasida taqsimlandi. Partiyalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar uzoq muddatga koalitsion hukumatni shakllantirishga yo'l qo'ymadi. Prezident va boshqa rahbarlarni saylash bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'ldi. Faqatgina harbiylar aralashuvidan keyin J. Gursul Turkiya prezidenti etib saylandi, hukumat raisi lavozimiga JXP rahbari I. Inenyu tayinlandi. Harbiy elite va G'arb hamkorlar nazorati ostida jamiyatni rivojlantirish yo'llarini topish, sovuq urush sharoitida, o'tkir ichki ziddiyatlar va tashqi nizolar kuchayib ketishi sharoitida sodir bo'ldi. Siyosiy kurash urbanizatsiyaga ta'sir ko'rsatish, mayda burjuaziya, ishchilarga bo'lgan talabning o'sishini, byurokratiyaning o'z ta'sirini yo'qotishidan qo'rqishini, g'arb tushunchalari va ommaviy madaniyatning ta'siri ortishini, islomchilar reaksiyalarini kuchaytirib yubordi. Bu narsa 1960 yillardagi turk jamiyati holatini ifodalovchi rasm edi.

1.4. Koalitsion hukumat davrida Turkiya

27 may to'ntarishidan keyin 1961 yil 15 oktabrda TBMMga saylovlar bo'lib o'tadi. Bu saylovda rasman to'rtta partiya qatnashadi. Bu saylovda JXP 36,7 foiz ovoz to'pladi, adolat partiyasi esa 34,7 foiz ovoz yig'ishga erishdi. Natijada 1961 yil 16 noyabrda JXP va AP birinchi koalitsion hukumatni tuzdilar. 1961 yil 27 noyabrda mamlakat bosh vaziri Ismet Inenyu koalitsion hukumatning dasturini o'qib eshittirdi. Ularning dasturida "Hukumatning maqsadi – erkinlik sharoitida tezda yuksalishni ta'minlash va yaqin o'tmishda oldindagi davlatlardan o'zib ketish" haqida gapirilgandi.⁵⁶ Bu maqsadga erishish uchun iqtisodiyotning davlat va xususiy sektoriga kapital joylashtirish nazarda tutilgandi. Tashqi siyosat doirasida hukumat dasturi g'arbiy blokka kiradigan davlatlar bilan Turkiyaning aloqalarini yanada rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish lozimligi ta'kidlangandi.

Bu yillarda Turkiyaning ijtimoiy – siyosiy sahnasida iqtisodiy rivojlanishga oid g'oyalarini amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan uchta ta'sir kuchi amalda

⁵⁶Mehter Hamdi. Siyasi Partilerin Mali İşlemleri ve Denetimleri, - Ankara: Turmob Yayınları, 2008, s 47.

edi. Birinchisi, fuqarolik va harbiy byurokratiya, ikkinchisi, import o'rnini bosuvchi sanoatga oid davlat siyosatini izchillik bilan amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan milliy tadbirkorlar, uchinchisi, Turkiyaning xorijlik kreditorlari.⁵⁷ Ularning qiziqishlariga, shubhasiz, Turkiyaning o'z qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi javob berardi. Turkiya sharoitida iqtisodiyotni rejalashtirish quyidagi ko'rinishda edi: Iqtisodiyotda reja belgilab olingan bo'lishi shart bo'lgan davlat sektori hamda reja belgilash ixtiyoriy bo'lgan xususiy sektorlar mavjud edi. Tashqi moliyalashtirish asosan davlat institutlari orqali amalga oshirilardi. 1960 yillar boshlarida Turkiyaning tashqi dunyo bilan savdo aloqalari import o'rnini bosish konsepsiyasi asosida qurilgan edi. Hal bo'lmagan tashqi savdoning yetishmovchiligi muammosi oldingidek qolayotgandi, bu esa turk lirasini devalvatsiyasiga bo'lgan davriy munosabatning sabablaridan biridir. Turkiya iqtisodiyotiga tashqi investitsiyaning kelishi katta emas edi va yiliga 10 million dollardan oshmas edi.⁵⁸ To'g'ridan – to'g'ri moliyaviy yordam xorijiy valyuta kirishining barcha vositalari ustidan hukmronlik qilardi. Hukumat bu yillarda o'zining g'arbiy sheriklari bilan birgalikda obyektiv qarama – qarshilikka ruxsat berish yo'llarini topishga harakat qilardi – davlat sektori iqtisodiy rivojlanishni boshqaruvchi funksiyasini ortiq bajarishi shart emas edi, bu vaqtda hatto eng katta mahalliy sarmoya ham bu rolni hal qilish holatida emas edi. 1960 yillarda turk burjuaziyasiga jo'shqin chaqiriqlar bilan murojaat qilgan mashhur sotsiolog Axmed Xamdi Bashar turk burjuaziyasini nashrdan chiqqan "Barış dünyası" jurnalida eskidan hokimiyatda qolib ketgan byurokратиyani kuch bilan tugatishga ko'ndirgan holda jamiyatning siyosiy va iqtisodiy hayotidagi liderlikni o'z qo'liga oldi.⁵⁹ Lekin u qayta va qayta Turkiya hukmron kuchlarini "Yevropa yo'lida" iqtisodiyotga davlat aralashuvini, davlat sektorini rivojlantirish kerakligini aytishdan charchamasdi. Turk iqtisodchilari va hukumat vakillari hatto eng kata davlat korxonlari ham Yevropaga integratsiya sharoitida yevropalik ishlab

⁵⁷Tevfik Çavdar. Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara :İmge Kitabevi, 1996, s 131.

⁵⁸Ceyhun Haydarog'lu. Türkiye'de darbelerin ekonomi politik'i. – Eskişehir, 2011, s 82.

⁵⁹Akşin Sina. Kısa Türkiye Tarihi.- İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008, s 57.

chiqaruvchilar bilan raqobat qiladigan holatda emasligi e'tirof etishdi. Xususiylar sektorlar haqida hatto gapirish shart emas edi. Mahalliy sarmoyani qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, neft-kimyo, energetikaga jalb qilishga bo'lgan davlatning sa'yi – harakatlari muvaffaqiyatsiz tugadi. O'sha yillarda iqtisodiyotga mahalliy sarmoyani jalb qilish o'sishi kuzatildi. Katta mahalliy banklarning vujudga kelishi, 1940 – 1950-yillardagi yer islohoti sekin lekin doimiy ravishda dehqonchilikda maxsulotlarning ko'payishi va shaharga ishchi kuchining oqib kelishini ta'minladi. Mahalliy sarmoya tekstil, oziq – ovqat sanoatiga yo'naltirildi. Avtomobil pokrishkasi, truba, kimyoviy o'gitlar, avtomobil yig'ish, maishiy elektr va radiotexnika ishlab chiqarish sanoatlarida o'sish kuzatildi. Turkiyaning tashqi siyosatidagi sezilarli burilish 1964 – yil Kipr inqirozi vaqtida mamlakatning hukmron doiralarida yuz bergan shok natijasida sodir bo'ldi.⁶⁰ Orolidagi ahvolning keskinlashishi sharoitida – greklar va turklar o'rtasidagi navbatdagi qurolli to'qnashuvi natijasi – harbiylar birini boshqasiga qarshi tayyorlashni boshlab yuborishdi. Bunga NATOning amerikalik rahbarlari kuchli aralashishdi. 1964 yil 4 iyun kuni AQSH prezidenti L. Jonson Ismet Inenyuga shaxsiy noma jo'natdi. Jonson yozishicha, Sovet Ittifoqi bilan nizolashayotgan sharoitida AQSH o'zining ittifoqdoshlariga yordamga kelmaydi, modomiki gap Turkiya bunday xatti – harakatlarini NATO a'zolarining roziligisiz boshlab yuborganiligi haqida ketayotgandi. Bu esa Turkiyaning na Kiprda, na Gretsiyaga qarshi boshqa yerda biror – bir amaliy harakat olib borishini ta'qiqlab qo'ydi. Demokratik partiyaning sobiq a'zolarini avf etish koalitsion hukumat tuzilar tuzilmas eng asosiy ishiga aylandi. Adolat partiyasi bu avf etish mavzusi yuzasidan boshqa partiyalar bilan aloqa o'rnatdi. Bu mavzu yuzasidan partiyalar komissiyalar tuzishdi. Bu mavzu majlisda qizg'in munozaralarga sabab bo'ldi. Prezident Jamol Gursul 18 dekabr kuni bu mavzuni muhokama qilish uchun Ismet Inenyuni prezident saroyga chaqirdi. Inenyu Chankayada prezident bilan bir soat davom

⁶⁰Dr. Idris Bal. Askeri darbeler ve Türk dış politikası.- Ankara, 2011, s 72.

etgan suhbatdan keyin Majlisga qaytib keladi va xonasida Adolat partiyasi raisi Ragip Gumushpala bilan, keyin esa JXP bosh kotibi Ismoil Rushtu bilan uchrashadi. Siyosiy barqarorsizlik bilan bir qatorda iqtisodiyotda ham muammolar bor edi. Koalitsion hukumatning yana bir muhim masalasi sharqdagi viloyatlarda davom etayotgan ochlik va qurg'oqchilik muammosi edi. 1961 yil 31 dekabrda vafot etgan Demokratik partiyaning sobiq a'zosi Tefvik Ilerining janoza marosimida yuzaga kelgan keskinlik koalitsion hukumat uchun yana bir muammoni keltirib chiqardi. Janozada Demokratik partiyaning sobiq a'zolarini avf etish tarafdorlari bo'lganlar va politsiya o'rtasida qurolli to'qnashuv yuz berdi. 1962 yil 22 fevral kuni Demokratik partiyaning sobiq a'zolarini avf etish tarafdorlari bo'lganlar harbiy qo'mondon Talat Aydemir boshchiligida o'ziga xos kichik bir to'ntarish amalga oshirishga harakat qilib ko'rishdi. Inenyu – Sunay boshchiligidagi guruh Aydemir bilan muzokara o'tkazdi va uning o'zi taslim bo'ldi. Adolat partiyasi butunlay armiyaga bog'liq bo'lishiga qaramay, Qurolli kuchlar ittifoqidagi kichik bir guruhning ikki marta to'ntarish o'tkazishining eng asosiy sababchisi edi. Koalitsion hukumatning tarqalishining ikkita asosiy sababi bor edi. Birinchisi, nozik masala hisoblangan Demokratik partiyalarning sobiq a'zolarini avf etish edi. Ikkinchisi rejalashtirilgan iqtisodiy loyiha edi. Bu loyihani JXP va armiya qo'llab – quvvatlardi, lekin Adolat partiyasi bunga tish – tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatardi. Shu tariqa koalitsion hukumat tarqalib ketadi. 1965 yil 10 oktarda navbatdagi saylovlar bo'lib o'tadi. Unda rasman yettita partiya qatnashgan. Hukumatga bo'lgan 1965 yil oktabr oyidagi ikkinchi saylovlarda AP 52,9 foiz ovoz to'plabko'proq omadga erishdi, majlisda 240 o'rinni (450 o'rindan) qo'lga kiritdi va Sulaymon Demirel boshchiligida yakka partiya hukumatini tuzdi. JXP 134 o'rinni egalladi, qolgan o'rinlar mayda partiyalar o'rtasida taqsimlandi. AP ning 1965 – 1971 yillardagi hukmronlik davri iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan Turkiyaning eng porloq davrlaridan biri bo'lib tarixga kirdi.⁶¹ Bu davrda respublika iqtisodiyoti taraqqiy etdi, inflyatsiya tushdi. Sanoatlashuv jarayoni

⁶¹ Данилов В.И. «Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжается» - М: Восток, 1998, стр 106.

tezlashdi. Qishloq xo'jaligiga sarmoyalar ortdi, energetika masalalariga muhim ahamiyat qaratildi. Ancha mustaqil va erkin tashqi siyosat amalga oshirildi. 1966 yil mart oyi oxirida palatalarning qo'shma majlisida Turk armiyasi bosh shtabining sobiq boshlig'i Jevdet Sunay Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylandi. APning saylovlardagi omadini uning dasturi katta burjuaziya va pomeschchiklar tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi ta'minladi. Dasturda xususiy sektorni rivojlantirish, xorijiy kapital joylashtirishni kengaytirish, boy dehqonlar kreditini kengaytirish va hokazolarni nazarda tutgan. Bir vaqtning o'zida APning asosiy raqibi bo'lgan JXP oldingi obro'sizlangan shiorini saqlab qoldi, turk jamiyatining barcha qatlamlari nomidan chiqishga harakat qilishdi.

1965 yildagi parlamentsaylovlarida 1961 yildatuzilgan Turkiya Ishchi partiyasi (TIP)

sotsialistik dastur bilan birinchi martaba parlamentsaylovlarida ishtirok etishga erishdi, 15 o'rinni egalladi, buni saunga fraksiya tuzish huquq berdi.⁶² TIP boshqaruviga Turkiya ijtimoiy harakatining mashhur liderlaridan bo'lgan Behidje Boran va Mexmet Ali Aybarlar kelishdi. Majlisning ekstrimal o'ng qanotida 11 o'rinni qo'lga kiritgan Respublika qishloq Milliy Partiya edi. 1965 – yilning avgustida mamlakatdagi panturkizm harakati liderligini saqlab qolgan mamlakatga qaytib kelgan A. Turkesh uning raisi etib saylandi. Turk rasmiy manbalarining tasdiqlashicha, AP hokimiyat tepasida bo'lgan 1965-1971 yillar davri “uning respublika tarixidagi eng yorqin davrlardan biri” bo'lgan. "Yuksak iqtisodiy o'sish, past inflyatsiya, erkinliklarini himoya qilish, jamoat tashkilotlari va mustaqil tashqi siyosatining faoliyati qayd etilgan. Sanoatlashish yangi turtki oldi.

Ayniqsa 1960

yilning ikkinchi yarmida Turkiyada siyosiy vaziyat, bu mamlakat uchun g'alati ixtilofga tushdilar. Mamlakatda Sulaymon Demirel boshchiligidagi hukumatda bir qarashda noodatiy voqealar sodir bo'ldi. Bir necha yil oldin, I. Inenyu davrida, “Jumhuriyat” gazetasida sotsializm haqida maqola paydo bo'ldi va uning muallifi,

⁶²Şahin Atacan. Türkiye'nin Çok Partili Hayata Geçiş Sürecinde Seçimler ve Seçmen Davranışları. - Eskişehir: Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2011, s 84.

shuningdek gazetaning javobgar muharriri sud qarshisida javob berishdi.⁶³ Besh olti yildan keyin S. Demirel davrida “sotsializm” so’zi zamonaviy so’zga aylandi, sotsializm bo’yicha kitoblar kitobxonlar orasida baxsga sabab bo’ldi, Marks, Engels, Leninning mehnatlari Turk tilidagi o’nlab tarjimalari paydo bo’ldi. 1967 yil iyulda ishchilar harakati bosimi ostida TBMM ishchilar sinfga bir qancha yengillik bergan mehnat haqida yangi qonun qabul qildi.

Inqirozdan chiqish yo’llarini qidirishda JXP, uning o’sha davrdagi rahbari I. Inenyu partiyadagi so’l qanotni qo’llab – quvvatlashga majbur bo’ldi. Pariyaning bu qanoti Bulent Edjevit atrofida tuzildi. 1966 yilda JXPning 18 syezdida Edjevit guruhi mahalliy partiya tashkilotlarining dastagini qo’lga kiritdi, uning o’zi esa partiyaning bosh kotibi etib saylandi. Bunday muvaffaqiyatdan keyin Edjevit faol ravishda “markazi chap” shiorini o’z ichiga olgan munozaraga qo’shildi. O’nglarning bir qancha tashkilotlarida ma’ruzasining nusxasi hatto “ijtimoiy” deb baholandi. Yevropada o’sib borayotgan imkoniyatlar 1960yillar o’rtalarida Turkiyaning tashqi siyosatida AQSHdan Yevropaga yaqinlashishga imkoniyat yaratdi, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati tashkil etilgan edi. Turk jamiyati har yerda hoziru – nozir bo’ladigan Amerikadan charchagan edi va kelajagini endi YIH bilan bog’lashga qaror qildi. Turkiyaning Yevropadagi sheriklari 1962 yil iyulda Turkiyaga yordam ko’rsatish bo’yicha Konsorsium tuzishga qaror qildilar. Erxan Benerning yozishiga qaraganda, bu chora iqtisodiyotini ko’tarishi uchun moliyaviy yordamga muhtoj bo’lgan Turkiya bilan munosabatda kredit siyosati muvofiqlashtirishi kerak edi. Bir qancha muzokaralardan keyin 1963 yil 12 sentabrda Anqaraga 1963 – yil 1 – dekabrda kuchga kiradigan assotsiatsiya tuzish haqidagi shartnomani imzolashga kelsihdi.

Anqara shartnomasi Turkiya – Yevropa hamkorligining asosiy hujjati bo’ldi. Unda Turkiya va YIH assotsiiasining maqsadlari belgilangan edi.⁶⁴ Shartnomaning muhim xususiyati shuki, Turkiyaga qaratilgan qismi, ya’ni 28 – moddasida shartnomaning amal

⁶³Dr. İrfan Neziroğlu. Türkiye’de askeri müdahaleler ve basın (1950-1980) – İstanbul: 2003, s 115.

⁶⁴Keyman, Fuat E. The Principle of Fairness in Turkey- EU Relations.-Ankara: Turkish Policy Quarterly, 2004, p 54.

qilishi davomida Uyushma a'zolari huquqlarini Turklar olishi nazarda tutilgan edi. Turkiyaning YIHga tomon integratsiyasining yakunlovchi bosqichida Bojxona ittifoqini tuzishni tugatish ko'rib chiqildi (Turkiya 1995-yil oxiriga qadar YIHning sanoat mahsulotlari importini erkinlashtirishi kerak edi). 1995 – yilda Turkiya Yevropa Ittifoqining teng huquqli a'zosi bo'lishi taxmin qilingandi.

Konsorsiumning tashkil qilinishi birinchi besh yillik rejaning qayta ishlash imkoniyatini aniqlab berdi. Reja haqidagi qonun hatto konstitutsayaga ham kiritilgan edi. 1962 yilda rivojlanish uchun Alohida dastur tayyorlandi, 1963 - yilda urushdan keyingi birinchi turk besh yillik rejasi boshlandi. Birinchi beshyillik rejasida besh yillik uchun zarur bo'ladigan tashqi moliyalashtirishning umumiy summasi 1.26 milliard dollarligi belgilangan edi. Reja matni gollandiyalik iqtisodchi Yan Tinbergen ishtirokida Keynseyn modeli asosida tayyorlandi.⁶⁵ Rejada 1950yillarda boshlangan erkinlashtirishni davom ettirilish nazarda tutilgan, lekin bu safar "aralash iqtisodiyot" kontsepsiyasiga asoslangan edi. Hujjatda turk xususiy tadbirkorligining kuchsizligi e'tirof qilindi, xorij kapitalini jalb qilgan holda uzoq muddatli strategiya va uning rivojlanishini kuchaytirish maqsad qilindi. Besh yillikka mo'ljallangan tashqi moliyalashtirishning hajmi 1, 26 milliard dollar qilib belgilandi. Asosiysi, 1950 yillardagi DP dasturida aks etgan davlat sektorining aralashuvi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda uning muhim rolini tan olish degan iqtisodiy dunyoqarashdan "aralash iqtisodiyot" kontsepsiyasi farq qilardi.

⁶⁵Ceyhun Haydarog'lu. Turkiye'de darbelerin ekonomi politig'i. – Eskişehir, 2011, s 106.

II.bob. XX asr 70 –yillarida harbiy tuzum davrida Turkiyaning ichki va tashqi siyosatining xususiyatlari

2.1. 1971 yil 12 martdagi harbiy to'ntarish va uning Turkiyadagi keyingi siyosiy jarayonlarga ta'siri

1960yil oxirlarida mamlakatda juda ham keng miqyosda talabalar namoyishi boshlandi. Bu harakatning birinchi to'liqlari Fransiyadagi talabalar to'liqini ta'sirida 1968 yil iyunda ko'tarildi. 1968yil 10 iyunda Anqara universitetining til, tarix va geografiya fakultetlari talabalari fakultet binolarini egallab, mamlakatda oliy ta'limni isloh qilish talablarini e'lon qilishdi. Bu chiqishlar Anqaraning boshqa oliy ta'lim muassasalarida ham paydo bo'ldi. 11 iyunda talabalar Anqara universiteti huquq fakulteti binosini egallashdi. 13iyunda texnika fakulteti talabalari darslarni to'xtatishdi. Adolat partiyasining parlament guruhi yig'ilishida bosh vazir S.Demiral "ahvolni o'ta og'irligini" tan oldi. Bu vaqtda yangi kuchlar qo'shilib talabalar harakati Anqarada o'sib bordi. 1969 yilda bu harakat O'rta Sharq Texnika universitetiga, Xadjettepa universitetiga, Anqara universitetining siyosiy fanlar fakultetiga ham yoyildi.⁶⁶ Talabalar universitet binosini egallab olishdi va darslarga qatnashmasligini e'lon qilishdi. Talabalar harakati yoyilib ketdi. Chiqishlar yaqqol Amerikaga va boshqaruv hokimiyatiga qarshi olib borildi.

1970 yilda talabalar chiqishlari Amerikaga qarshi ko'rinishda saqlanib qoldi. 1970 yil 29 aprelda Anqaralik talabalar talabalar chiqishlariga 10 yil bo'lganini qayd etib, shahar markazi Qiziloy va Zafar maydonlarida namoyishlar o'tkazishdi. Namoyishlar "Mustaqil Turkiya", " Demokratiya" "yankilar, uylaringga qaytinglar" va boshqa shiorlarda olib borildi. 1970 yil 29 aprelda o'ng hukumat Turkiya milliy yoshlar uyushmasining o'ng qanoti boshchiligida kommunizmga qarshi milliy shiorlar ostida namoyish bo'lib o'tdi. 25 may kuni Anqara universitetining huquq fakultetida fakultet talabasi o'ldirildi. Uning o'ldirilishi Anqaradagi uch universitetning barcha talabalarini Zafar maydonidagi Otaturk haykali yonida talabalarning ommaviy namoyishining qaytadan o'sishiga olib

⁶⁶Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - МОСКВА:крафт ИВ РАН, 2007, стр 318.

keldi.⁶⁷ Bu yerda yana “Amerikaga la’natlar bo’lsin”, “yo’qolsin yankilar” degan hayqiriqlar yangradi. Soner Yalchinning yozishicha, “har bir Amerikaga qarshi namoyishga javoban mustaqillik uchun komandirlarning jangovar guruhlari va musulmonlar chiqishdi”.

1969 yil 16 fevral Mustafo Kamol sharafiga Amerikaning 6 flotiga va imperializmga qarshi norozlik sifatida namoyishlar tashkil etildi. Biroq bundan oldin radikal ruhdagi diniy guruhlarda mitingga qarshi jihodga chaqirildi. Miting kuni qo’llariga tayoq va qurol olgan namoyishchilar paydo bo’lishdi. Namoyishda Turan Erdog’an va Turgut Aytachlar o’ldirildi, o’nlab odamlar yaralandi. Bu kun Turkiya tarixiga “Qonli yakshanba” nomi bilan kirdi. Bu voqea 1969 yil 16 fevralda yuz bergan. 1960 yil oxirlarida radikallar, panturkistlar va islom tarafdorlari o’zlarining siyosiy partiyalarini tuza boshlashdi. 1969 yil oktabr boyida navbatdagi saylovlar bo’lib o’tdi. Bu saylovlarda Adolat partiyasi muvaffaqiyat qozondi va parlamentda 256 o’rinni egalladi. JXP esa 143 o’rinni egalladi. Saylovlar mamlakat siyosiy hayotida Adolat partiyasining yetakchiligini ta’minladi.⁶⁸ Sulaymon Demirel bosh vairligicha qoldi. Mamlakatdagi demokratik jarayonlardagi qarama – qarshiliklar reaksion kuchlarning chiqishi, politsiya provokatsiyasi, sudlangan demokratlarni ta’qib qilish bilan birga yuz berdi. Terroristik so’llarning chiqishi, asirlarni olib qochish va ularning o’ldirilishi hukumatga so’llar harakatiga qarshi repressiyani kuchaytirishga bahona bo’ldi. 1960 yillar oxiri 1970 yillar boshida talabalar, ishchilar harakatining keng quloch yoyishi jamiyatning mulkka ega bo’lmagan qatlamining siyosiylashuvi bilan birga kechdi. 1971 yil 12 martda yana bir bor to’ntarish o’tkaziladi. Bu to’ntarishning oldingidan farqli ravishda butunlay hokimyatni ag’darib tashlamadi. 1960 yillarning oxirlarida butun dunyoda bo’lganidek, Turkiyada ham talabalar harakatlari, ishchi mitinglari keng qanot yozdi. Bundan tashqari mamlakat ichki siyosatiga Amerikaning aralashuvi kuchaydi. Mamlakatning ham iqtisodiy ham siyosiy

⁶⁷Abdulahap AKINCI - Türkiye’nin Darbe Geleneği: 1960 ve 1971 Müdahaleleri - Eskişehir Osmangazi üniversitesi İİBF dergisi, nisan 2014, s 16.

⁶⁸Mehmet Kabasakal, Türkiye’de Siyasal Parti Örgütlenmesindeki Kısıtlamalar. Tesav Sempozyumu: Siyasi Partiler Ve Demokrasi.- Ankara: Tesav Yayını, 1995, s 121.

sohalarida tanglik vaziyati yuzaga keldi. Bu jarayonlar mamlakat va Otaturk g'oyalarining himoyachisi bo'lgan armiya yana mamlakatning boshqaruv masalasida o'z so'zini ayta boshladi. 1971 yil 12 mart sanasida mamlakat Qurolli kuchlari tomonidan imzolangan ogohlantiruvchi bayonot radio orqali e'lon qilindi.⁶⁹ 1969 yil 16 martda "Genelkurmay" tashkiloti boshlig'i etib tayinlangan harbiy general Memduh Tag'mach, Quruqlik qo'shinlari qo'mondoni general Faruk Gurler, Havo qo'shinlari qo'mondoni general Muhsin Batur va Dengiz qo'shinlari qo'mondoni admiral Jalol Eyijeog'luning imzolari qo'yilgan ogohlantirish bayonnomasi quyidagi moddalardan iborat edi:

1. Parlament va hukumat o'zining qarashlari va faoliyati bilan yurtimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy parokandaliklar girdobiga tashladi. Otaturkning bizga maqsad qilib bergan madaniyatlilik darajasiga yetish umidini yo'qotdi va konstitutsiya ko'zda tutgan islohotlarni amalga oshirolmagan, Turkiya Respublikasi kelajagini og'ir bir tahlikaga tashladi.

2. Turk millatidan chiqqan Qurolli Kuchlarning bu umidsiz sharoit haqida eshitgan qayg'u va umidsizliklarni bartaraf qilish choralarning, anarxistik vaziyatni bartaraf qilish uchun konstitutsiya ko'zda tutgan islohotlarni Otaturk kabi bir qarash bilan ilg'ab oladigan va inqilob qonunlarini joriy qiladigan kuchli va ishontiruvchi hukumatning demokratik qoidalar asosida qurish zarurligi aytilmoqda.

3. Bu qarash zudlik bilan amalga oshirilmagan taqdirda, Turk qurolli kuchlari qonunlari o'ziga bergan Turkiya Respublikasini qo'riqlashva qo'llab – quvvatlash vazifasini bajarib, boshqaruvni to'g'ridan – to'g'ri o'z qo'llariga olishga qaror qiladi.

Bu ogohlantirish bayonnomasi TRT radiosi orqali butun mamlakatga o'qib eshittirildi. Harbiylar 27 maydagi to'ntarishdan 11 yil o'tib yana bir marta da'vo bilan chiqishdi. Bu safar hokimyatni ag'darib tashlamadi, faqatgina Sulaymon Demirelning iste'fosini talab qilishdi. Agar Demirel iste'fo bermasa ogohlantirish bayonnomasining 3 – moddasida aytib o'tganlaridek o'zlari hokimyatni qo'lga

⁶⁹Ahmed Feroz .Demokrasi Sürecince Türkiye 1945-1980. – İstanbul, 2007, s 132.

olishlarini aytib o'tishdi. Demirel 12 mart kuni ertalab prezident Jevdet Sunaydan iste'foga chiqishi kerakligi aytilgan telefon qo'ng'irog'ini qabul qildi.⁷⁰ Lekin Demirel majlisdan ishonch ovozini olmasdan iste'fo bermasligi javobini berdi. Armiya tavakkal qildi va Demirelning qarorini kuta boshladi. Demirel yo iste'fo bermay armiyaning hokimyatni qo'lga olishiga yo'l qo'yib berardi yoki iste'foga chiqardi. Demirel esa quyidagicha javob berdi: "Orqamda kuch yo'q ishonch bildirishlariga qanday erishay, ishonchsizligini olib bayonnomaning maqsadi shu ekan deb iste'foga chiqayimmi?"

Qurolli Kuchlarning ogohlantirishi bilan 1971 yil 12 martda Sulaymon Demirel bosh vazirlikdan ozod qilingan. Mazkur ogohlantirishdan so'ng Sulaymon Demirel o'rniga shoshilinch tarzda sobiq JXP a'zosi Nihat Erim prezident tomonidan bosh vazir etib tayinlangan. Qurolli kuchlar ogohlantirishi va bosimidan taraddudlangan AP va JXP hukumat tarkibini qayta tuzishga majbur bo'ldilar. Mavjud hukumatga Turkiya Ishchi partiyasidan tashqari JXP bosh kotibi Edjevit ham qarshi chiqqan va bosh kotiblikdan iste'fo bergan. 26 mart kuni tayyorlanib, 2 – aprelda ishonch ovozi olgan Erim xonasida AP va JXP a'zolari o'rin olgan edi. Bu hukumatning dasturi bir yondan mamlakatda rohat va ishonch bo'lishini va'da bergan, boshqa tarafdin yer islohoti kabi konstitutsiyada ko'rsatilgan bir qancha islohotlarning amalga oshirishini bildirdi. 12 mart voqealari Turkiyaning ilk tuzilgan partiyasi bo'lgan JXP faoliyatiga ham ta'sir etdi. Edjevit iste'fosidan so'ng partiya yetakchiligi uchun kurash boshlandi. Bir tarafdin Edjevit tarafdorlari harakat qilgan bo'lsa, boshqa bir tarafdin bir guruh partiya a'zolari Inenyu nomzodini yoqlamoqda edi. 1972 yilning may oyida partiyaning navbardan tashqari qurilt oyida Edjevitga berilgan ishonch ovozidan so'ng Inenyu iste'foga chiqib sobiq davlat rahbari sifatida senator bo'ldi. Inenyu tarafdorlari yangi Respublikasi partiyasini tashkil etishgan va 1967 yilda JXPdan ajralib chiqqan Ishonch partiyasi bilan birlashib Respublikachi Ishonch Partiyasini tuzishdi.

⁷⁰Tevfik Çavdar. Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara :İmge Kitabevi, 1996, s 145.

1971 yil 12 martdagi davlat to'ntarishi bilan o'z nihoyasiga yetdi. Bosh qo'mondon va turk qurolli kuchlari qo'mondonlarining hamkorligida amalga oshirilgan davlat to'ntarishi anarxiya va terrorizmni oldini olish, farovonlikni barqarorlashtirish, islohotlarini amalga oshirish, Otaturk nuqtai nazariga mos ravishda har qanday siyosiy partiyaviylikdan ustun bo'lgan bir hukumatni barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yganligini, aks holda vaziyatning armiyaning o'z qo'liga tamomila olishini bildiradi. Shunday sharoitda hukumat bosh vaziri S.Demiral o'sha kuniyoq Respublika Prezidenti J.Sunay iste'fo arizasini topshirdi. So'l kuchlar tor – mor qilindi, Ishchilar partiyasi ta'qiqlab qo'yildi, uning liderlari esa 15 yilga qamoq jazosiga hukm qilindi. Ilg'or yoshlar tashkiloti tarqatib yuborildi va minglab faollari qamoqqa olindi, ilg'or fikrlovchi nashrlar ta'qiqlandi. Jazolashlar 1973 yilgacha parlament saylovlari amalga oshirilgunga qadar to'xtovsiz amalga oshirildi, anarxistlar va ekstremistlar o'rtasida ig'vo yuzaga keldi. Hukumat "Turkiya milliy – ozodlik armiya"sining so'l tashkilotlarining o'nlab rahbarlarini qatl etdi.

12 martdagi bu to'ntarish Ismet Inenyuning JXP bosh kotibi Bulent Edjevit bilan kelishmovchiligiga sabab bo'ldi.⁷¹8 mayda partiyaning navbatdan tashqari qurultoyida partiyaning bosh raisligidan ketdi.1972 yil 4 noyabr kuni Inenyu JXP a'zolidan, 14 noyabr kuni esa JXP deputatligidan ozod qilindi. Sobiq davlat rahbari sifatida senat a'zosiga aylandi.Bayonnoma e'lon qilinib hukumat qaytadan qurilganidan keyin birinchi ish sifatida o'zlaricha to'ntarish qilmoqchi bo'lgan beshta general, bir admiral va 356 kapitanni armiyadan haydash bo'ldi. Buning sababi 1971 yil 12 martdagi bu kurash sodir bo'lmaganida ba'zi generallar, admiral va ofitserlar Adolat partiyasini butunlay mamlakat boshqaruvidan ozod qilib, o'zlaricha to'ntarish qilmoqchi bo'lganlaridir. Prezident Jevdet Sunay 15 martda JXP, DP, MGP, AP vakillari bilan ko'rishdi.⁷²Nihat Erimga hukumat tuzish vazifasi yuklandi. Erim 2 aprel kuni hukumatning yangi dasturini majlisda namoyish qildi. 7 aprelda partiyalar bilan maslahatlashgan holda partiyalar unga

⁷¹TBMM raporu. – Ankara: 2012, s 428.

⁷²Kapani Münci. Politika Bilimine Giriş - İstanbul: Bilgi Yayınevi, 1992, s 76.

ishonch bildirishdi. Respublikaga qarshi faoliyatlarini nazorat qilish, qonli voqealarga barham berish, shardagi viloyatlarda ayirmachilik faoliyatlarini tugatish, Kiprda harakat uchun mos muhit yaratish maqsadida Milliy xavfsizlik boshqarmasi 27 aprelda 11 ta viloyatda qattiq boshqaruvni o'rnatdi. Bu boshqaruv bilan birga majlisdan tashqarida siyosiy faoliyatlarni to'xtatish, so'llarni butunlay bostirish maqsadida yoshlarning siyosiy tashkiltolari yopildi, ularning siyosiy majlislari va seminarlari ta'qiqlandi. "Jumxuriyat" va "Oqshom" gazetalari 10 kun muddat ichida yopildi, nashriyotlar noqonuniy nashr qilsalar jazo olishlari ogohlantirildi.

17 mayda Isroilning Istanbuldagi bosh konsuli Efraim Elrom Mohir Chayan boshchiligidagi THKC ("Türkiye Halk Kurtuluş Cephesi") nomli noqonuniy tashkiloti tomonidan olib qochiladi, agar qamoqdagi do'stlarini ozod qilmasa Elromning o'ldirilishini aytishdi. Hukumat Elromning o'ldirishilishi barobarida odam olib qochganga o'lim jazosi berilishini ko'zda tutgan qonunni konstitutsiyadan olib tashlash fikrini ilgari surdi, lekin bu fikr majlisda katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Bu voqea arafasida butun mamlakat bo'ylab so'l qanot vakillari deya tahmin qilingan 427 kishi ko'z ostiga olingandi, Elromning o'tgan bir haftadan beri topilmaganligi sababli 23 mayda Istanbulda 15 soat mobaynida ko'chaga chiqishlari ta'qiqlanganligi e'lon qilindi.⁷³

Nihat Erim bu voqealar yuz berganligidan umuman mamnun bo'lmagani bilan biror nima qilolishini bilmasdi. Nihat Erim: "Hech kim unutmasligi kerakki, 12 martdan oldingi kunlarga qaytish yo'q" degan holda Turkiyada yangi bir erkinlashtirish davri bo'lishini oldini olish, 1961 yilgi konstitutsiyani qisqartirish kerakligini ta'kidladi. Elrom 23 may kuni bir uyda o'lik holda topildi. Aybdorlar Mohir Chayan va Husayin Javohirlarga qarshi harbiy operatsiya tashkil qilinadi. Natijada Husayin Javohir o'ldiriladi, Mohir Chayan jarohat oladi va qo'lga olinadi. Nihat Erim hukumati ichki siyosatda ham tashqi siyosatda ham biror bir o'zgarish qilolmadi.

⁷³Hasan Celal Güzel, Prof. Dr. Ali Birinci.Genel Türk tarihi.- Ankara: Timor, 2000, s 389.

Nihat Erim boshchiligidagi hukumat 11 nafar vazirning hukumatdan ajralgani tufayli iste'foga chiqqan bo'lsa – da unga ikkinchi bor hukumat tuzish vakolati berildi. Biroq bu hukumat atigi besh oygacha ham bormadi. Natijada bosh vazir etib Respublikachi ishonch partiyasi a'zosi Feret Melen tayinlandi. Bu hukumat davridagi eng muhim voqea prezidentlik saylovi bo'ldi. 1973 yilda TBMM da o'tkazilgan Prezident saylovida 12 mart nomzodi bo'lgan Faruk Gurler mag'lubiyatga uchradi. AP va JXPdan hamkorlikda chiqarilgan nomzod Faxri Koruturk parlament tomonidan Prezident etib saylandi.

2.2. 1973 – yilgi saylov va Koalitsion hukumatning hokimyat tepasiga kelishi

1973 yil 14 oktabrda parlamentga navbatdagi saylovlar bo'lib o'tadi. 1973 yilgi saylovlar AP va JXP o'rtasidagi kurashlar bilan kechdi. 1973 yildagi saylovlarda 1950 yildan so'ng birinchi marta Jumxuriyat Xalq Partiyasi eng ko'p ovoz (33,2%) olib parlamentda 185 ta deputatlik o'rnini egalladi. AP 29,8% ovoz oldi. Erbaqon boshchiligidagi islom partiyasi uchinchi bo'ldi. Bu partiya Milliy qutqarish partiyasi deb yangidan nomlandi va saylovda 11,9% ovoz to'pladi. Natijada parlamentda 48 ta deputatlik o'rnini egalladi. Milliy qutqarish partiyasi 1972-yilda tuzilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'naviy va material tarafdin xalqni ko'tarish, tarixiy qadriyatlarga tayanib tanqidchilikdan vos kechishni nazarda tutgan edi.⁷⁴ Partiya dasturida vijdon erkinligini cheklashni bekor qilish, otleizmga olib boruvchi ateizmdan din bilan davlat voz kechishni talab qilar edi. Milliy qutqarish partiyasi lideri professor, injiner Najmiddin Erbaqon va bir necha partiya yetakchilari JXP va AP tanqid qilishib, ularni Turkiyani g'arbning ko'rinmas quroliga aylantirganlikda va musulmon davlat bilan aloqalarni susaytirishda ayblashdi. Bunday yakundan keyin partiya majlisda hal qiluvchi rolga ega bo'ldi. Harbiy tuzum davrida uning faoliyati ta'qib qilindi, Erbaqonning o'zi sudga tortildi. Turkiyadagi Milliy qarash faoliyati haqidagi ma'lumotlar uning Yevropadagi funksiyalarining sinxronligini baholash imkoniyatini beradi. Bu mamlakatning demokratik tuzumlari MQ faollariga yevropada chuqur o'rnashib

⁷⁴Ozan Örmeci. Türkiye'nin Çok Partili Sisteme Geçışı, Erişim Tarihi. -Ankara: Siyasal Kitapevi, 2011, s 123.

olishga, eng ko'psonli, eng ko'p ta'sir kuchiga ega va eng boy islom jamiyati bo'lishiga ruxsat berardi. Yevropada unga dunyoviy harakat tuzumlariga sodiq qolishga zarurat yoq edi, u o'zining nomi ostida birinchi G'arbiy Berlinda tashkil qilindi, keyin esa uning markazi Kyoln shahriga ko'chirildi. 1970 yillarda siyosiy hokimyatga kelgan JXP Edjevit boshchiligidagi hukumat 1974 yil yanvar oyidan hukumatni boshqara boshlagan. 14 oygina hokimiyat tepasida turgan bu partiya unchalik ko'p ishlarni qilib ulgurmagan bo'lsa ham tashqi siyosatda millatchilik tezislarini tasdiqladi. JXP lideri siyosiy ahamiyatda chap markazchilar pozitsiyasini egallab, iqtisodiy sohalarda yangi o'zgartirishlar kiritishga harakat qildi. Tashqi siyosatda AP bilan birgalikda ko'p hollarda birdamlik va hamkorlik olib bordi. JXP hokimyatga yakka o'zi kelishi uchun yetarli ovoz to'play olmaydi va yana koalitsion hukumat tuziladi.⁷⁵ JXP va MQP 1974 – yil 26 – yanvarda Bulent Edjevit boshchiligidagi koalitsion hukumat tuziladi. MQP lideri Najmiddin Erbaqon bosh vazir o'rinbosari bo'ldi. Koalitsion hukumat dasturida davlat sektorini mustahkamlash zarurligi, keng miqyosda amnitsiya qilish, 18 yoshdan boshlab sayov huquqini berish, g'arbdagi ittifoqchilar bilan ishonchni saqlab qolish kerakligi belgilab olindi. Kipr muammosi bo'yicha Turkiyaning oldingi pozitsiyasi ma'qullandi. Yangi hukumat “Umumiy bozor” bilan aloqalarni qayta ko'rib chiqishga va'da berdi, modomiki mavjud kelishuv “Turkiyaning adolat tamoyillari hisobga olinmasdan” tayyorlangandi. JXP – MQP koalitsiya mustahkam emas edi. Uning faoliyati sheriklar o'rtasidagi ximla – xil fikr, dunyoqarash sharoitida amalga oshdi. 1974 yil 15 iyul kuni Kiprda qurolli fitna tashkil qilindi. Arxiyepiskop Makariosning qonuniy hukumati ag'darildi.⁷⁶ 1959 yilgi Syurix London kelishuviga muvofiq Edjevit hukumati 20 iyulda Kiprning shimoli va shimol – sharqida turk qo'shini joylashgan orolga safar uyushtirdi. NATOning ikki a'zosi – Turkiya va Gretsiya o'rtasidagi aloqalar juda ham keskinlashib ketdi, har iki mamlakatning armiyasi jangovar holatga keltirildi. 1974 yil 20 iyulda BMT xavfsizlik kengashi barcha davlatlarni Kiprning hududiy yaxlitligini,

⁷⁵Korkut Baratov, *Türkiye'de Devletçilik Savaşı* - Ankara: Aydın, 1982, s 158.

⁷⁶Türkiye Tarihi. Çağdaş Türkiye.-İstanbul: Can Yayınları, 2003, s 124.

suverenitetini, mustaqilligini hurmat qilishga chaqirgan rezolyutsiyani qabul qildi, tezda hujumni to'xtatishni talab qildi, Gretsiya, Turkiya va Angliyaga orolda tinchlik va konstitutsiyaviy boshqaruvni tiklash maqsadi bilan kelishuvlarni boshlashini tavsiya qildi. 22 iyul kuni hujumni to'xtatish haqidagi kelishuv kuchga kirdi. 1974 yil 25 iyuldan 8 avgustga qadar Jenevada Angliya, Gretsiya va Turkiya tashqi ishlar vazirlari o'rtasida natijasiz tugagan muzokaralar bo'lib o'tdi. 14 avgust kuni Turkiya oroldagi harbiy harakatlarini qaytadan boshladi va bosib olingan hududlarni yanada kengaytirdi (orolning 40% hududigacha). Bu esa Kiprda yana tanglik holatini keltirib chiqardi. 1975 yilda Kiprning bosib olingan shimoliy qismida turk hukumati Kipr davlatini turk federal davlati deb e'lon qildi.⁷⁷ Uni faqat Turkiya tan oldi. Gretsiya bilan munosabatda kipr masalasini hal qilishdan tashqari, Egey dengizi bo'yicha kelishmovchilikni bartaraf qilish zarurati paydo bo'ldi. Bu kelishmovchilik 1973 yilda Egey dengizining greklarning Tasos oroliga yaqin qismida neft topilganidan keyin yuzaga keldi. Dengizda qidiruv ishlarini boshlagan Gretsiyaning ortidan Turkiya ham ishga kirishdi. Shundan so'ng Gretsiya Turkiyani qit'adagi Gretsiyaning huquqlarini buzishda aybladi. Edjevit hukumatining kipr masalasida harakatini Turkiyada ko'pchilik qo'llab – quvvatladi. Ular turk armiyasini orolga faqat bitta maqsad bilan joylashib olganini, ya'ni Kipr suverenitetini himoya qilish, kiprdagi turklarning mol – mulkini va hayotiy mavjudligini ta'minlash maqsadi bilan o'rnashib olgan deb hisoblardi. Kipr inqirozi paytida mamlakatda uning mashhurligi o'sishidan Edjevit muddatidan oldin parlament saylovlarida yakkapartiyaviylik hukumatini tuzish uchun foydalanadi. 1974 yil sentabrda Edjevit hukumati iste'foga chiqadi, JXPning mamlakatda o'z hokimyatini mustahkamlashga yo'naltirilgan boshqaruv rejalari amalga oshmay qoladi.⁷⁸ JXP parlamentda muddatidan oldin saylovlar haqida masalani hal qilish maqsadiga erishdi, Adolat partiyasi o'z atrofiga o'nglarni yig'ishga shoshiladi va bu bilan 1977 yilda bo'lib o'tadigan saylovlargacha qimirlab turgan o'rnini mustahkamlab oladi. AP rahbarlari o'ng partiya rahbarlari

⁷⁷Akşin Sina. Ana Çizgileriyle Türkiye'nin Yakın Tarihi, İmaj Yayıncılık, Ankara.1996, s 107.

⁷⁸Данилов В.И. «Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжатся» - М:Восток,1998, стр 125.

bilan hamkorlik qilshga erishdi. Ular birgalikda “Milliy Front”ni tuzishdi. Bu frontga Adolat partiyasidan tashqari Milliy Qutqarish Partiyasi, Respublika Ishonch partiyasi va Turkesh boshchiligidagi Milliy Panturkizm Harakati Partiyasi ham kirardi. 1975 yil aprel oyining boshida hukumatning 6 oy davom etgan inqirozidan keyin Milliy majlisda o’ng partiyalarning ovozlari Sulaymon Demirelning “Milliy Front”i tuzilganini tasdiqladi. Uning dasturida mamlakat ichida kommunizm va anarxiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy adolatni ta’minlashga bo’lgan intilish, Turkiyani juda qisqa vaqt ichida sanoatlashgan davlatga aylantirish maqsadi belgilangandi. Dasturda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi “erkin tadbirkorlik va qonuniy daromad” orqali ta’minlanishi ko’rsatilgandi. Dasturda yana O’rta Sharq, Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan savdo aloqalarini kengaytirish ham ko’zda tutilgandi. Mamlakatning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ko’tarilishi mamlakatning sanoatlashuvi deb nomlandi. Og’ir va milliy harbiy sanoat vujudga keldi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi aralash iqtisodiyot tizimi asosida amalga oshiriladi. Bunda davlat tadbirkorligi mamlakat aralash iqtisodiyotining muhim belgisidir. Davlat sektoriga sarmoya joylashtirish butun sarmoyalarning yarmidan ko’prog’ini tashkil qilardi. Davlat sanoat korxonalari Turkiya sanoatining asosiylari bo’lib qolaverdi. Bu hammasidan oldin metallurgiya va neft – kimyo sanoatiga aloqador edi. Davlatning bunday nazorati bank tizimi ustidan ham amalga oshirildi. Bank operatsiyalaridagi butun turk banklari sarmoyasining 89 foizi davlat banklari hissasiga to’g’ri kelardi. Katta xususiy mablag’larning mavjudligi natijasida davlat banklari bank kreditlarining katta qismini nazorat qildi. Faqatgina davlat sektori faoliyatini moliyalashtiribgina qolmasdan, xususiy sektorga ham kreditlar ajratdi. Amalda davlat shahar (Xalq banki orqali)va qishloqdagi (Qishloq xo’jaligi banki orqali) mayda ishlab chiqarishni to’laligicha kreditladi. Davlat sektori mamlakatdagi elektroenergiya ishlab chiqarishni ham nazorat qildi. Mamlakatdagi barcha katta – katta issiqlik va gidro elektro stansiyalar davlatga qarashli edi. Transport, xizmat ko’rsatish kabi xalq xo’jaligi sohalari kabi o’sa boshladi. Temir yo’llar, mamlakat dengiz transportining kattagina qismi, shahar ichidagi barcha yo’nalishlarda

harakatlanadigan transportlar to'raligicha davlatga qarashli edi. Havoda amalga oshadigan qatnovlar va havo flotini "Turk havo yo'llari" davlat tashkiloti nazorat qilardi. Bu vaqtda xususiy avtomobil kompaniyalari qo'lida shaharlar o'rtasidagi barcha yuk va yo'lovchi tashish va shahar ichidagi yuk, qisman yo'lovchi tashish transportlari bor edi. Shahar avtobus, trolleybus va tramvay yo'nalishlari umumiy jamoat transportini tashkil qilardi. Davlat qo'lida esa Turkiyaning barcha shosse yo'llari bor edi. Bu yillarda pochta, telefon va telegraf kabi mamlakat aloqa tashkilotlari ham davlatning qo'l ostida edi. Mamlakatdagi barcha radiostansiyalar va televideniya ham davlatga qarashli edi. 1975 – 1977-yillarda iqtisodiy o'sishning o'rtacha darajasi 7%dan yuqori edi, ishlab chiqarish kuchlari va sanoatdan foydalanish darjasi ancha ko'tarildi, qishloq xo'jaligi sohasida esa Turkiya o'zini butunlay kerakli oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan darajaga yetdi. Bir vaqtning o'zida iqtisodiyotda xavotirli tendensiyalar ham o'sib borardi. Moliya tizimidagi kamomad 6,5%ni tashkil qilardi. Neft narxi jadal oshib borardi, ulurji narxining yillik o'rtacha o'sishi deyarli 17%ni tashkil qildi, investitsiyalarni moliyalashtirishning tashqi manbalarining roli 6%ga yetdi. Natijada tashqi qarz tez suratlarda o'sib borardi. 1973 – yildan 1980 – yilga qadar 4,6 barobar oshib, 15,3 milliard dollarga yetdi. Natijada uning tuzilmasida xavfli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Uzlaksiz ravishda qarzdorlik ko'payib borardi. 1970 yillar boshida qarz miqdori katta emas edi. O'sha o'n yillikning o'rtasida umumiy qarzdorlikning to'rtidan biriga yetdi. 1977 yilda qisqa muddatda to'lanishi kerak bo'lgan qarz Turkiya tashqi qarzining 58%ini tashkil qilardi. Tashqi siyosat dasturida MF hukumati Yevropa Iqtisodiy va Xavfsizlik Kengashi ishida faol qatnashishini e'loq qildi. Bu vaqtda dasturda NATOga ishonch bildirildi. Hukumat o'zaro hurmat asosida Sovet Ittifoqi bilan yaxshi qo'shnichilik siyosatini rivojlantirishni davot ettirish istagi borligini ta'kidladi. Dasturda alohida e'tibor Turkiyaning arab davlatlari bilan o'zaro aloqalariga qaratildi. Turk – Amerika aloqalariga katta e'tibor berildi.⁷⁹Amerika kongressi bilan aloqalarning

⁷⁹Burcu Bostanoğlu. Türkiye-ABD ilişkileri. - Ankara. 2008, s 46.

yomonlashuvi Turkiyaga amerika qurollarini yetkazib berishda embargo⁸⁰ joriy qilinishiga olib kelardi. “Milliy Front”ning hokimyat tepasida turgan ikki yillik muddat davomida undagi asosiy Partiya sanalgan Adolat partiyasi mamlakatdagi pozitsiyasini mustahkamlashga, koalitsiyadagi, parlamentdagi, mamlakatdagi va xalqaro maydondagi har qanday qiyichilikka sabr bilan yengib o'tishga harakat qildi. Ayniqsa Najmiddin Erbaqon boshchiligidagi MQP Demirelni xavotirda ushlab turdi. U faol ravishda “Umumiy bozor” bilan aloqalarini qayta ko'rib chiqishga undadi, kibr masalasida birorta imtiyozga qarshi ekanligini aytdi va Demireldan katta xususiy kapitalni cheklashda amaliy harakatlarni talab qildi.

Adolat partiyasi koalitsiyadagi asosiy partiya JXPga qarshi chiqardi. Mamlakatda yuz bergan qiyin sharoitlarda, ya'ni konstitutsiyani buzishga bo'lgan urinishlar, o'z ishini suiste'mol qilish, korrupsiya kabi muammolar yuzaga kelgan davrda saylovlarda raqibini ayblashga urinardi. JXP MF hukumatining davlat xavfsizligi sudlari to'g'risidagi qonunni qabulishga to'sqinlik qildi. U davlat, xususiy sektorlarni mustahkamlash va iqtisodiyotning “milliy sektori”ni yaratishini ta'minlashi kerak bo'lgan “yangi iqtisodiy tizim”ni tashkil qilishga chaqirdi. JXP MQP bilan qisqa muddat bo'lsa ham hokimyat tepasida bo'lgan davrda mustaqil tashqi siyosat yuritishga erishganini isbotladi, ya'ni Turkiya “O'rta Sharqda g'arbning vakili sifatidagi vazifasini bajarish”ga majbur bo'lmadi. Turkiya “AQSh va Sovet Ittifoqi bilan do'stlik” aloqalarni mustahkamlashi kerak edi. JXP “Turkiyaning Yevropa iqtisodiy jamiyatiga bergan katta iqtisodiy imtiyozlaridan tashvishda ekanligi” tasdiqladi. Natijada uning uyushmasi bu tashkilot bilan aloqasi “Turkiya iqtisodiyoti uchun tashvishli” edi, mamlakat sanoatlashuviga to'sqinlik qilardi. Shuning uchun Turkiyaning “Umumiy bozor” bilan aloqalarini qayta ko'rib chiqishiga to'g'ri keldi. Turkiyadagi so'l kuchlar haqida gap ketganda bir narsani ta'kidlash kerakki, Turkiya Ischi partiyasi qayta tiklandi, uning raisi qilib yana Behidje Boran saylandi. So'l partiyalar va talabalarning bir qancha guruhlari o'nglarga, mamlakatni fashistlashtirishga, Amerikaning Turkiyaga aralashuviga qarshi

⁸⁰Embargo – (ispancha) hibsga qo'yish, ta'qiqlash.

chiqishdi. 1976 yil 1 mayda Istanbulda demokratik shiorlar ostida ko'p ming kishilik namoyish bo'lib o'tdi. Anqaradagi ilg'or tashkilotlar tashabbusi bilan 1 sentabr Tinchlik kuni deb belgilandi. Parlamentda partiyalar o'rtasidagi siyosiy kurashlarga sabab bo'lgan qiyinchiliklardan tashqari, "Milliy Front" hukumati inflyatsiya, Turkiya tashqi qarzining o'sishi, import qilinayotgan maxsulotlar va neft narxining ko'tarilishi kabi iqtisodiy faktorlar ta'sirini ham mavjudligini e'tirof etishdi. 1976 yilda tashqi savdo kamomadi 35 milliard dollarda yetdi. 1975 –1976-yillarda hukumat eksportni kengaytirish maqsadida liraning dollarga nisbatan qiymatini deyarli 20%ga kamaytirdi (1 dollar 16 liarni tashkil qildi). Ma'lumki bu kamomadning uchdan ikki qismi mamlakatning "Umumiy bozor" bilan aloqalaridan keyin paydo bo'ldi. Bu Turkiya va "Umumiy bozor" mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlardagi yagona qiyinchilik emas edi. Turkiya "Umumiy bozor" davlatlaridan turk eksporti uchun kvotani ko'tarishini, G'arbiy Yevropaga eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi maxsulotlariga nisbatan bojxona cheklovini olib tashlashini, shuningdek Turkiyaga ko'rsatilayotgan moliyaviy yordamni oshirishini, "ishchilarning erkin harakatlanishi haqida"gi kelishuvni va kafolatlangan mehnat sharoitlarini yaratishini talab qildi.⁸¹

G'arb davlatlarining Turkiyaga munosabatlari, AQSh tomonidan e'lon qilingan iqtisodiy embargo, Kipr harakati uchun sarf-xarajatlar mamlakatda katta muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Kipr voqealaridan keyingi olib borilgan tashqi siyosatdagi koalitsiya ichidagi kelishmovchiliklar oqibatida JXP-MSP koalitsion hukumati buzildi. Sakkiz oyga yaqin faoliyat ko'rsatgan JXP-MQP koalitsion hukumati parlamentga taqdim etgan amnitsiya qonun loyihasining deputatlari muhokamasi paytida MQPning ba'zi deputatlari o'ng partriya bilan hamkorlik qilgani uchun ba'zi muammolarga duch kelgan. Biroq qonunning rad etilishi tufayli hukumat saqlanib qolindi. Kipr masalasi tufayli hukumat katta obro' qozondi. Siyosiy beqarorliklar tufayli AP, MSP va RXP birlagalikda Milliy "Front" hukumatini tuzishdi.

⁸¹Keyman, Fuat E. The Principle of Fairness in Turkey- EU Relations.-Ankara: Turkish Policy Quarterly, 2004, p 78.

2.3. XX asr 70 – yillarida Turkiyaning tashqi siyosati

Turkiya – Sovet Ittifoq munosabatlari

1970 yillarda Turkiya tashqi siyosati haqida gapirilganda bir narsani ta'kidlash kerakki, bunda Turkiyaning AQSh va SSSR bilan munosabatlari muhim ahamiyat kasb etdi. Turkiyaning SSSR bilan munosabatlari tarixiga qaraydigan bo'lsak, ular o'rtasidagi aloqalar ancha oldin o'rnatilgan. Birinchi jahon urushidan keyin 1921 – yilda bu ikkala davlat o'rtasida o'zaro yordam to'g'risida shartnoma ham imzolangan. Harbiy tuzumlar davridagi ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu davrda ham aloqalar yaxshi edi. 1966 yil 20 – 27 dekabr kunlari SSSR bosh vaziri rasmiy tashrif bilan Turkiyaga keladi.⁸² 1967 yil 25 mart kuni Turkiyada yettita sanoat korxonasi qurilishini nazarda tutgan texnik va moddiy yordam ko'rsatilishi belgilangan shartnoma tuziladi. 1967 yilda Sulaymon Demirel Moskvaga tashrif buyuradi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar sanoatlashishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Aliog'a neftni qayta ishlash korxonasi, Temir zavodi, Iskanderundagi metallurgiya zavodi va Seydishehirdagi Alyuminiy zavodi Sovet Ittifoqi yordami bilan tashkil qilindi. 1970 yillarda ishga tushirilgan Iskanderundagi metallurgiya zavodi milliy ishlab chiqarishning 40%ini, alyuminiy zavodi alyuminiy va alyuminiy oksidi ishlab chiqarishning 100%ini, sulfat kislota ishlab chiqaradigan zavod 27%ini, neftni qayta ishlaydigan zavod neft maxsulotlarini qayta ishlashning 28%ini ta'minladi. 1970 yillar boshida ikki mamlakat o'rtasida transport aloqalari o'rnatildi. Moskva – Istambul aviayo'nalishi va temiryo'l yo'lovchi tashish harakati ochildi, Turkiya orqali Arab davlatlariga SSSRdan temiryo'l va aviayo'nalishlar yo'lga qo'yildi. Lekin ikkala davlat o'rtasidagi aloqalar rivojlanishi bir tekis bo'lmadi. Bunga 1970 yilda Batumi – Suxumi doimiy yo'nalishida aviaqatnov vaqtida samolyotga havo qaroqchilari hujum qilishi sabab

⁸²Dr. Idris Bal. Askeri darbeler ve Türk dış politikası.- Ankara, 2011, s 92.

bo'lgan. Terroristlar samolyot yo'l boshlovchisini o'ldiradi, uchuvchi va samolyot boshqaruvchisiga og'ir jarohat yetkazishadi, samolyotni Trabzonda vaqtinchalik qo'nishiga majbur qiladi. Sovet hukumati Turkiyadan qotillarni sudga topshirishni talab qiladi, lekin bu qonuniy iltimos bajarilmaydi. Texnik va iqtisodiy hamkorlikning kengayishi uzoq muddatga sovet – turk savdo aloqalarining davom etishiga zamin yaratdi. Misol uchun, 1967 – 1974 – yillardagi ikkala mamlakat o'rtasidagi umumiy savdo hajmi 50,4 million rubldan 129,1 million rublga o'sdi.⁸³ Sovet Ittifoqi texnologiya va jihozlardan tashqari Turkiyaga ehtiyot qismlar, asbob – uskunalar, o'g'it, qora metal, fotoapparatlar, soatlar va boshqa narsalar yetkazib berdi. Sovet Ittifoqining Turkiyadan qilinadigan importining kattagina qismini qishloq xo'jaligi maxsulotlari tashkil qilardi. Sovet Ittifoqi Turkiyadan sitrus mevalar (20%), funduk yong'og'i (15%), mayiz (15%), katta miqdorda paxta, tamaki maxsulotlari va boshqa maxsulotlar sotib olardi. Bundan tashqari xom – ashyo, yengil va oziq – ovqat sanoatining tayyor maxsulotlari ham SSSRga import qilinardi. 1972 yili SSSR Yuqori Kengashi Prezidiumi raisi N.V. Podgornning Turkiyaga tashrifi chog'ida “ V. I. Lenin va M.K. Otaturk ilgari surgan tinchlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik an'analarga mos keladigan ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish” haqidagi deklaratsiya qabul qilindi; “davlatlarning suvereniteti va teng huquqliligini hurmat qilish”, “davlatlarning hududiy yaxlitligini va chegaralarning daxlsizligini hurmat qilish”, “davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik”, “har bir mamlakatning o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimini tanlash va rivojlantirish kabi ajralmas huquqini hurmat qilish”, “kuch bilan tahdid qilmaslik” va boshqalar. 12 – mart voqealaridan keyin esa Turkiya va Sovet Ittifoqi o'rtasida iqtisodiyot sohasida aytarli o'zgarishlar bo'lmadi. 1971 yil 12 mart voqealaridan keyin tuzilgan Nihat Erim hukumati tashqi ishlar vazirligiga NATO vakili Osman Oljayni vazir etib tayinlanishi Turkiyani yana AQSh bilan yaqinlashganini va ular o'rtasidagi aloqalarga katta ahamiyat berilganligini anglatardi. Bu voqealar Turkiya va SSSR o'rtasidagi aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 12 marta yuz bergan to'ntarishdan

⁸³Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - МОСКВА:крафт ИВ РАН, 2007, стр 334.

keyin SSSR Turkiyaga nisbatan “kut va ko’r” siyosatini yuritdi. 1975 yil iyul oyida Sovet Ittifoqi – Turkiya aloqalarining davomi sifatida yaqin 10 – 12 yilga mo’ljallangan iqtisodiy va texnik hamkorlikni rivojlantirish haqida hukumatlararo shartnoma imzolandi. Bu shartnoma energetika (400 ming kilovatt quvvatga ega bo’lgan ikkita issiqlik elektrostansiyalarini qurilishi), qora metallurgiya (Iskenderundagi metallurgiya zavodini kenaytirish), rangli metallurgiya (Seydishehirdagi akyuminiy zavodini kengaytirish) sohalardagi hamkorlikni nazarda tutardi. 1978 yil 23 iyunda Turkiya bosh vaziri B. Edjevitning Sovet Ittifoqiga tashrifi davomida SSSR va Turkiya o’rtasida yaxshi qo’shniçilik va do’stlik aloqalari tamoyillari haqida siyosiy hujjat imzolandi. Bu kelishuv iqtisodiy va texnik hamkorlikni kengaytirish, savdo, madaniyat va boshqa sohalarda aloqalarni rivojlantirishga ko’maklashi kerak edi. Bu tashrif davomida shuningdek qora dengizda ikki mamlakatning continental chegarasi haqida sovet – turk shartnomasi imzolandi. Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish shuningdek chegaraga oid masalalarni hal qilishga zamin yaratdi. 1967 yilda sovet – turk chegaralarini qayta tiklash haqida protocol imzolandi. Chegaralarni qayta tiklashga oid ishlar amaliyotga ko’chirildi va 1973 yilning oxirida SSSR va Turkiya o’rtasida davlatlarning quruqlikdagi chegarasi haqida hujjat imzolandi. O’sha yili Qora dengizda sovetlar va turklar o’rtasida dengizdagi chegara chiziqlarini aniqlashga oid protocol imzolandi, bu masala 1980 yilda tugallandi.

Turkiya va Amerika Qo’shma Shtatlari aloqalari

12 mart voqealaridan keyin bu ishlarda AQShning qo’li bor yoki yo’qligi masalasi tortishuvlarga sabab bo’ldi. Nihat Erim hukumati tomonidan tuzilgan tashqi ishlar vazirligiga NATOning suvbiq vakili Osman Oljayning vazir etib tayinlanishi Turkiyaning yana AQSH bilan yaqinlashganini va aloqalarga muhim ahamiyat berganligini anglatardi.⁸⁴ Bir narsani ta’kidlash kerakki, 12 mart voqealarida AQShning qo’llab – quvvatlashi borligi ham tahmin qilinadi. Ogohlantirish bayonnomasida imzosi bo’lgan general Muhsin Batur 12 mart

⁸⁴Burcu Bostanoğlu. Türkiye-ABD ilişkileri. - Ankara. 2008, s 87.

voqealaridan bir necha kun oldin AQShga borib kelishi aynan mana shu mavzuda katta tortishuvlarga sabab bo'ldi. Demirel hukumati davrida AQSh tashqi ishlar vaziri Eliot Richardson AQShga kirib kelayotgan narkotik moddalarning 80 foizi Turkiya orqali kelishini aytib o'tdi, agar bu narsa to'xtatilmasa Turkiyaga ko'rsatilayotgan yordam to'xtatilishini bildirdi. Nihat Erim esa bu mavzuda o'ziga xos munosabatda bo'ldi. Buning sababi saylovlarda qatnashish, yetarlicha ovoz to'plash kabi bezovtaliklar yo'qligi edi. Erim Turkiyada qurilgan bu hukumat oyoqqa turishida AQShning qo'llab – quvvatlashi bo'lmasdan qiyin bo'lishini yaxshi bilardi. Shu sababi hukumat tuzgandan keyin tezda bu mavzuda AQSh bilan muzokaralarni boshlab yubordi. Dastlab AQShning Anqaradagi elchisi Villiam Handley Erim hukumatiga Amerika Prezidenti Niksonning AQSh va Turkiya munosabatlariga oid rejalarini bildirdi va bu mavzu Vazirlar kengashida muhokama qilindi. 1971 yil aprel oyida AQSh tashqi ishlar vaziri Villiam Rojers Anqaraga tashrif buyurdi va ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish haqida muzokaralar olib bordi.

AQSh Turkiyaning narkotik moddalarni ishlab chiqarishni ta'qiqlagani uchun zararni qoplash maqsadida Turkiyaga 30 million dollar berishni taklif qildi. Erim hukumati bu taklifni qabul qiladi. 1971 yildan afyun va boshqa narkotik moddalarni ishlab chiqarish va ekish ta'qiqlandi. AQShning xohishi Turkiya tarafidan bajarildi, lekin AQSh bergan va'dasida turolmadi. Taklif qilgan pulning uchdan bir qismini berdi. Afyun ishlab chiqarishi bilan kun kechiradigan tahminan 100,000 ming oila katta zarar ko'rdi. AQSh 12 mart voqealaridan oldin qabul qildirolmagan bu taklifini to'ntarishdan keyin qurilgan hukumatga qabul qildirolldi. Erim hukumatidan keyin qurilgan Melen hukumati davrida Turk jamiyati tomonidan bu ta'qiqlovning oldirib tashlashi haqida talablar yangradi.

Bu davrda Turkiyaning ham ichki siyosatda ham mamlakatda bo'layotgan terrorchilik va ichki parokandalik tufayli Turkiya – AQSh munosabatlarida sezilarli o'zgarish sodir bo'lmadi. AQShning afyun borasidagi ta'qiqlovi turk ishlab chiqarishiga va iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1974 yil iyun oyida

Turkiya tarafidan ayfun yetishtirish haqidagi ta'qiqlovni olib tashlashi AQSh tomonidan salbiy qabul qilindi. Natijada AQSh Turkiyaga qurol yetkazib berishga embargo joriy qildi. 1960 – 1980 -yillar Turkiya – AQSh munosabatlarida keskinlik va inqiroz holatlarini ko'rish mumkin. Kipr masalasi tufayli yuzaga kelgan “Jonson maktubi” va “qurol embargosi” aloqalarga qaqshatqich zarba bergan voqealar edi.⁸⁵ Aynan shu voqealar Turkiyaning tashqi siyosatida keskin o'zgarishlar yuz berishiga yo'l ochib berdi. Bu voqealar Turkiyaning Sovet Ittifoqi bilan aloqalarini qaytadan ko'rib chiqishi uchun sabab bo'ldi. Turkiya – AQSh munosabatlarida ochiqlik qolmadi. Turkiyaning tashqi qarzini o'z vaqtida to'lashi, eski qarzi bo'yicha har yilgi to'lov o'rtacha 300 million dollar edi, bevosita AQShga bog'liq edi. Kipr masalasi tufayli AQShning Turkiyaga qurol yetkazib berishga embargo joriy qilishi qarori mamlakat qurolli kuchlari tizimiga sezilarli zarba berdi. AQShning xatti – harakatlari 1975 yilgi “Milliy Front” hukumatining dasturida muhokama qilindi. Bu hukumat tashkil qilinganidan keyin kongress bu qarorini qayta ko'rib chiqishini kutdi. Lekin 1975 yil iyulda AQSh kongressining vakillar palatasi embargoni olib tashlash haqidagi qonun loyihasini 206 ovozga qarshi 223 ovoz bilan rad qilishdi. Demirel hukumati javob chorasi sifatida AQSh bilan mudofaa to'g'risidagi kelishuvni, shuningdek Turkiyadagi Amerika bazalarini huquqiy holatini belgilab beruvchi 58 ta ikki tomonlama shartnomalarni to'xtatishini e'lon qildi.⁸⁶ Tez orada turk hukumati bu bazalar ustidan o'z nazoratini o'rnatadi. 1976 yil martida ikki taraf munosabatlardagi keskinlikni yumashatishga va mudofaa borasida yangi Turkiya – AQSh kelishuvini imzolashga erishadi.

Turkiya – Yevropa Iqtisodiy Jamiyati munosabatlari

12 mart voqealaridan keyin tuzilgan Erim hukumati, Demirel hukumati davrida Yevropa Iqtisodiy Jamiyati bilan boshlangan aloqalarda biror bir

⁸⁵Ahmed Feroz .Demokrasi Sürecince Türkiye 1945-1980. - İstanbul. 2007, s 156.

⁸⁶ Поцхверия Б.М. Внешняя политика Турции в 60-х – начале 80-х годов XX в. – М., 1986, стр 65.

o'zgarish qilolmadi. Yevropa bilan munosabatlarda Erim hukumati YIJ bilan aloqalariga shunday izoh berdi: "Yevropa Iqtisodiy Jamiyati bilan do'stligimiz yangi bir davr ostonasida turibdi. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati vaqt o'tgan sayin qadr topadigan bu do'stlikning manfaatlarimizga mos ravishda rivojlantirilishini uchun harkat qilamiz. Shu fikr bilan o'tish davrida muzokaralarni ijobiy natija bilan tugatishga umid qilyapmiz va iqtisodiyotimizning ko'tarilishiga erishamiz. Mamlakatimizning kelajagi bilan bog'liq bu do'stlikni muvaffaqiyatga erishtirish uchun hukumat sifatida barcha ishlarni amalga oshiramiz va sanoatimiz va qishloq xo'jaligini rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqamiz". 1970 yilda Turkiya va YIJ o'rtasida Brusellda shartnoma tuziladi. 1973 yilda Qo'shilish protokoli amalda kuchga kuchga kiradi va unda o'tish davrinin xususiyatlari va taraflarga yuklanadigan vazifalar belgilandi. Turkiyada 1970 – yillarda bo'layotgan iqtisodiy va ba'zi siyosiy inqirozlar Qo'shilish protokolida belgilangan vazifalarni bajarishiga yo'l qo'ymaydi. Olib borilgan muzokaralardan keyin Qo'shilish protokoli 1973 yili 1 dekabrda kuchga kiradi.⁸⁷

Turkiya – O'rta Sharq davlatlari bilan munosabatlari

Turkiya 12 mart voqealaridan oldin Arab davlatlari bilan yaqin munosabatda bo'lgan. 1965 – 1971-yillar davomida Turkiya ichki va tashqi ta'sirlar tufayli Turkiyaning tashqi siyosati, mamlakatda oldin kuzatilmagan bir davrga kirdi. Bu davr Turkiyaning g'arbdan uzoqlashib, sharq bilan yaqinlashishiga olib keldi.

Turkiya O'rta Sharq bilan aloqalarida Turkiyaning NATOga a'zo bo'lib kirishi, Kipr, neft, Isroil mavzulari asosiy o'rin egalladi. Turkiyaning O'rta Sharq davlatlari bilan aloqalarini uch davriga ajratish mumkin:

1. 1950 – 1960 – yillar davri;
2. 1964 – 1973 – yillar davri;

⁸⁷Кунаков В.В. Турция и ЕС: проблемы экономической интеграции. – М, 1999, стр 96.

3. 1973 va undan keyin davr.

1950 – 1960 – yillar davri

Turkiyaning O'rta Sharq davlatlari bilan aloqalari 1955 – 1960 – yillar orasida uncha yaxshi bo'lmagan. Bu davrda Turkiya Sovet Ittifoqi tarafidan bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi NATOga kiradi va Sovet Ittifoqining O'rta Sharqda Arab davlatlarini ta'sir doirasiga olishi Turkiyani tashvishga solib qo'yadi. Bu voqea Turkiyaning Arab davlatlari bilan aloqa o'rnatishini qiyinlashtiradi.

1964 – 1973 – yillar davri

1964 yilgi Kipr voqealaridan 1973 yilgi neft inqirozi yuz bergunga qadar bo'lgan davrda Turkiya O'rta Sharq va Arab davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi. 1965 – 1971 – yillar davomida Turkiya Arab davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini yuritdi.⁸⁸ 1965 yilgi saylovlardan keyin hokimyat tepasiga kelgan AP Turkiyani xalqaro maydonda yolg'izlanib qolayotganini ko'rdi, hokimyat tepasida turgan davrida Arab davlatlari bilan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirishni maqsad qildi. Demirel 1965 yil hukumat dasturida O'rta Sharq va Mag'ribda joylashgan musulmon va arab davlatlari hisoblangan Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan har tomonlama tashqi siyosat olib borishini belgiladi. AP hukumatining oldingi hukumatlardan farqli jihati shundaki, O'rta Sharq siyosatini faqatgina G'arb siyosatining bir bo'lagi sifatida ko'rmaslik va mintaqadagi “yetakchi” davlatlar bilan ham aloqa o'rnatish bo'lgan. Bu davrda tarixiy va madaniy yaqin hisoblangan arab davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy yaqinlashishning ilk qadamlari tashlanadi. AQSh esa Turkiyaning bu xatti – harakatlarini qoralaydi, Demirel hukumatiga ishonch bildirmaydi, hatto bu hukumatni xavfli hukumat deb hisoblaydi. 12 mart voqealaridan keyin kelgan Erim hukumati AQSh bilan yaqinlasha boshlaydi va Demirel hukumati davridan davom etib kelayotgan ko'p tomonlama siyosat yuritishdan uzoqlashadi. Bu vaziyat Arab

⁸⁸ Иванова И.И. Турецко-арабские отношения и их место в системе международных связей на Ближнем Востоке. – М, 1985, стр 89.

davlatlari bilan yana uzoqlashib ketishiga sabab bo'ldi. Turk hukumati 1967 – yilgi Arab – Isroil urushida, AQShning Isroilga yordam qilarkan Turkiyaning xatti – harakatlarini ta'qiqlab qo'ydi. Lekin Turkiya Isroilga qarshi urushgan Misr, Iordaniya va Suriyaga yordam sifatida oziq – ovqat va kiyim – kechaklar jo'natadi.⁸⁹BMT ham Arab davlatlarini qo'llab – quvvatlash siyosatini yuritdi. 1969 – yilda Aksa Masjididagi yong'in va bu voqea tufayli bo'lib o'tgan Islom Konferensiyasi Turkiyaning Islom dunyosiga yaqinlashishi uchun muhit hozirladi. 1969 – yil Fas shahrida bo'lib o'tgan Islom Konferensiyasida Turkiya Tashqi ishlar vaziri ham ishtirok etadi. 1969 – 1973- yillar orasida Turkiya O'rta Sharq bilan faol siyosat yuritmadi. 1973 yilgi Arab – Isroil urushi tugaganidan keyin Falastinning davlat tuzish huquqi Turkiya tomonidan tan olindi va qo'llab – quvvatlandi.

1973 va undan keyin davr

1973 yilgi neft inqirozi Turkiyani O'rta Sharq davlatlari bilan yanada yaqinlashtirdi. Bunga neft narxining oshib ketishi, Turkiyaning qarzga neft olish masalasi bir – biriga to'g'ri kelib qolgani sabab bo'ldi. Turkiya neft bilan o'zini – o'zi ta'minlay olmaslik darajasiga keldi. 1978 yilda imzolangan va butun Arab dunyosida katta qarshiliklarga sabab bo'lgan Kempt – Devid shartnomasi Turkiya tomonidan ham rad qilindi. Turkiya Isroilning 1980 yilda Quddus shahrini “abadiy va o'zgarmas poytaxt” qilish qarorini e'tirof qilmaganini bildirdi. Tel – Avivdagi elchixonalarni Quddusga ko'chirish istagiga qarshi chiqdi. 1956 yilda Isroilning Misrga hujum qilishi natijasida elchisini chaqirib olgan Turkiya 1980 yil noyabr oyida Isroil bilan diplomatik aloqalarini ikkinchi kotib darajasiga tushirdi. Qolaversa 1981 yilda Isroilning Golan tepaliklariga bo'lgan da'vosini rad qilgan holda e'tirof etmadi.

Turkiya – Gretsiya munosabatlari

⁸⁹Dr. Idris Bal. Askeri darbeler ve Türk dış politikası – Ankara, 2011, s 126.

Turkiya – Gretsiya aloqalari Kipr masalasi tufayli yanada keskinlashib ketdi, bu keskinlik 1974 yilgi Kipr inqirozidan keyin cho'qqisiga chiqdi. Tez orada bu masalaga Egey dengizi masalasi ham qo'shiladi. Angliyaning taklifiga binoan 1964 yil 15 dekabrda Londonda konferensiya tashkil qilinadi. Bu konferensiya natijasiz tugaydi. Kiprga 10.000 kishilik NATO kuchlarining jo'natilishi rejasi Kiprdagi Makarios hukumati tomonidan rad qilindi. Rumlarning Turkiyaga qarshi hujum qilishi natijasida turk hukumati TBMMdan Kiprga qarshi urush ochish topshirig'ini oldi. Natijada Kiprga BMT tomonidantinchlik kuchlari jo'natiladi. Turk – Yunon munosabatlariga 1974 yildan boshlab yana salbiy ko'rsatgan voqea Egey dengizi masalasidir. Bu masala Gretsiyaning Egey dengizi ustidan butunlay o'z nazoratini o'rnatish maqsadidan kelib chiqdi. Gretsiya Lozanna shartnomasi qaroriga binoan Egey dengizidagi Bo'zcha oroli, Go'kche oroli, Meis va Oniki orollaridan tashqari qolgan boshqa orollarni olgan edi. Italiya nazorati ostida bo'lgan Oniki va Meis orollarini qo'lga kiritish maqsadida harakatlarni boshlab yubordi. Ikkinchi jahon urushida Italiya mag'lub bo'lganidan keyin Oniki oroli vakillari Gretsiya bilan birlashish niyatida ekanligini bildirdi. Lekin bu orol nazorati nemislar boshqaruviga o'tgandi. Urushdan keyin Oniki orolini tark etgan nemislar Turkiyani bu orollarni egallashga undadi. 1974 yil 10 fevralda Parijdagi kelishuvga binoan Meis va Oniki orollari Gretsiyaga berildi. Biroq Gretsiyaning bu orolda harbiy baza qurolmasligi, askarlar va qurollar joylashtirmasligi e'lon qilindi.

Gretsiya Kipr masalasidan keyin Egey dengizida Turkiya qirg'oqlariga yaqin orollarni qurollantirishni boshladi. Turkiya bu mavzuda Gretsiyani ogohlantiradi va vaziyatga tomoshabin sifatida qarab turmasligini bildirdi. Gretsiya 1961 yildan Egey dengizida neft qidirib topish istagida bo'lgan kompaniyalarga qidirishga ruhsat beradi. 1970 yillarga kelib Greklar tarafidan berilgan ruhsat Turk qit'a nazoratini ham o'z ichiga olgandi. Gretsiya dengiz chegaralarini o'zicha belgilashga harakat qildi. Turkiya bu masalani hal qilish uchun Gretsiyaga bir qancha takliflar jo'natadi, javob ololmaganidan keyin Egey dengizida o'z qit'a nazoratida neft va tabiiy gaz qidirish uchun 1974 yil may oyida

“Chandarli” kemasini Egey dengiziga jo’natadi. 1976 yilda Egey qit’a nazorati mavzusi yana kun tartibidan o’rin oladi.⁹⁰

1974 yilgi Kipr inqirozi va Kipr harakati

1968 yilda boshlangan jamiyatlararo muzokarlarda 1974 yilga qadar hech qanday o’zgarish sodir bo’lmadi. Kipr masalasi Turkiyaning Arab dunyosi bilan aloqalarida muhim nuqta bo’ldi. 1965 yilda BMTda Kipr masalasi muhokamasi davomida Arab davlatlaridan dastak olinmaydi. Bu orada Yunon hukumati Kiprning Yunon tuproqlariga qo’shilishida to’siq bo’lib turgan Makariosni hokimyatdan tushirishga qaror qildi. 1974 yil 15 iyun Makarios boshqaruvdan uzoqlashtiriladi. Kipr muxtoriyati tuziladi. 1974 yilgi Kipr inqirozi shunday boshlanadi. Turkiya, Angliya va AQSh Kiprdagi yangi hokimyatni tan olmadi. Angliya bilan birga Kiprga qarshi kurashishni xohlagan bosh vazir Bulent Edjevit 17 iyunda Londonga tashrif buyuradi. Lekin biror bir natija bo’lmadi. Edjevitning Turkiyaga qaytganidan bir kun keyin, ya’ni 20 iyunda Turkiya qurolli kuchlari Girmedan Kiprga yura boshlaydi. Turk qo’shinlari Girne va Lefkoshaga joylashtiriladi. Rum va yunonlar bilan shiddatli to’qnashuvlar bo’ldi. 22 iyun oqshomi Turk qo’shinlari bu shaharlarni o’z nazorati ostiga oladi. Shundan keyin Turkiya 40.000 kishilik kuch va 300 ta tank jo’natadi. Kipr harakati tufayli turk – grek aloqalari keskinlashadi, ikki mamlakat orasida urush atmosferasi yuzaga keladi. Turkiyaning Kipr harakatida Amerika qurollaridan foydalangan bo’lishi yoki yo’q, AQShda bunga qarshilik bilan javob beradi. Natijada 1974 yilda qurol embargosi joriy qilinadi. Bunga javoban Turkiya 1975 yil 13 fevralda Kipr Turk Federal Davlati tuzilganini e’lon qildi. Turkiya 1975 yil iyun oyida mamlakatdagi AQSh harbiy ba’zalarining maqomini qayta ko’rib chiqishini bildirdi. 1969 yilgi Mudofaa hamkorligi shartnomasi bekor qilindi. Turkiyadagi barcha AQSh tashkilotlari Turkiya Qurolli Kuchlarining nazorati ostiga olindi. AQSh hukumati 1978 yil 16 sentabrda qurol embargosini bekor qiladi.

⁹⁰Поцхверия Б.М. Внешняя политика Турции в 60-х – начале 80-х годов XX в. – М., 1986, стр 102.

Umumiy xulosalar

Mazkur mavzuni tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalar olindi.

- Turkiyada harbiylarning ahamiyati oldindan, ilk davlatchilik asoslari paydo bo'lgandan beri katta bo'lgan. Aynan harbiylar omili Usmoniylar imperiyasining qudratli imperiyalardan biri bo'lishiga olib kelgan. Sulton va mamlakatning asosiy tayanchi hisoblangan harbiylar sababli Usmoniylar imperiyasi dunyoning uch qit'asida mustamlakalarga ega bo'lgan yagona davlatdir.
- Lekin yana bir narsani ta'kidlash kerakki, aynan shu harbiylar Usmoniylar imperiyasining tanazzulga yuz tutishiga sababchi ham bo'lishgan. Ular o'zlariga berilgan imtiyozlardan foydalangan holda mustaqil bo'lishga intilgan. Bu esa o'z navbatida harbiylarning markaziy hokimyatga bo'ysunmasligiga olib kelgan.
- Turkiyaning mustaqil bo'lishida va respublika tashkil qilinishida harbiylarning roli juda katta. Mustafo Kamol boshchiligidagi harbiylar mamlakatdan chet el bosqinchilarini quvib yuboradi va Mustafo Kamol Respublika tashkil qilinganini e'lon qiladi. Hukumat boshqaruvini eplay olmagan ba'zi jihatlarini o'nglashga harbiylar boshchiligidagi armiya generallari katta sahnaga chiqishadi.
- Harbiylarning bu qadar hukumat ishlariga aralashishlariga G'arb doimo ko'zini yumib kelgan. Chunki o'sha paytlarda AQShning asosiy raqobatchisi SSSRni shundoqqina biqinida joylashganligidir. AQSH Turkiyaga NATO harbiy bazasini joylashtirib, G'arb uchun "kerakli" davlat nisbatini olgan edi. Shu sabab bilan harbiylar fuqarolik boshqaruvini ag'darib, o'zi istagan hukumatni shakllantirar edi. Lekin Yevropa bilan aloqalarga sovuqchilik tushishiga sabab bo'ldi. Gretsiya bilan munosabatlar yomonlashdi.

- Turkiyada harbiylar bir necha bor davlat to'ntarishini amalga oshirgan. 1960 va 1971 yildagi davlat to'ntarishlarida ham harbiylar asosiy rolni o'ynashgan. Bu harbiy to'ntarishlar Turkiya tarixida katta iz qoldirgan va bevosita Turkiyaning keyingi ijtimoiy – siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan.

- 1960 yilgi harbiy to'ntarishning asosiy sababi mamlakatdagi hukmron partiya sanalgan Demokratik partiya Mustafo Kamol Otaturk boshlab bergan demokratik va respublikachilik islohotlar o'tkazishni to'xtatib qo'yadi va aksincha, mamlakatda repressiyani avj oldiradi. Bu esa o'z navbatida bir qancha muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada xalqning turmushi og'irlashadi.

- Mustafo Kamolning tarafdorlari hisoblangan harbiylar esa bu holatdan norozi bo'ladi va mamlakatda boshqaruvni o'z qo'llariga olishga intiladi. Bu yo'lda ular harbiy to'ntarish o'tkazishadi va hukmron partiya Demokratik partiyaning hokimiyatdan ag'darishadi. Hokimiyat Jamol Gursul boshchiligidagi Milliy Birlilik Qo'mitasiga o'tadi. 1961 yilgi saylov natijalariga ko'ra mamlakatda JXP va AP birgalikda koalitsion hukumatni tuzishadi. Lekin bu hukumat davrida mamlakatda sezilarli o'zgarishlar yuz bermaydi.

- Koalitsion hukumatning tarqalishiga asosan ikkita sabab bo'lgan. Birinchisi sobiq Demokratik partiya a'zolarini avf etish, ikkinchisi JXP va armiya qo'llab turgan iqtisodiy loyihaga Adolat partiyasi jiddiy qarshilik ko'rsatishi edi. 1960 yillar oxirlarida mamlakatda talabalar namoyishi, ishchilar mitingi keng avj oladi. Mamlakatdagi ichki voqealar yana bir marta harbiylarning davlat boshqaruviga aralashishiga olib keladi.

- 1971 yil 12 martida harbiylar “yumshoq” harbiy to'ntarishni amalga oshiradi va hukumatga ogohlantirish bayonnomasini jo'natadi. Bu bayonnoma 3 moddadan iborat edi. Harbiylar bu safar hukumatni ag'darib tashlamadi. Faqatgina bosh vazir Sulaymon Demirelning iste'fosini talab qilishdi. Agar Demirel iste'fo bermaydigan bo'lsa kuch ishlatishlarini ma'lum qilishdi. Natijada 12 mart kuni ogohlantirish bayonnomasi e'lon qilinadi va Demirel iste'fo berishga majbur bo'ladi. Shundan

so'ng sobiq JXP a'zosi Nihat Erim boshchiligida hukumat tashkil qilinadi. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin.

- Nega aynan harbiylar to'ntarish tashabbuskori bo'lishgan? Buning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, harbiylar azal - azaldan mamlakat boshqaruvida va ijtimoiy – siyosiy hayotida yetakchi rolni o'ynashgan. Ikkinchidan, Mustafo Kamol boshlab bergan demokratik islohotlar bu davrda Demokratik partiya tomonidan oyoqosti qilinadi. Bu esa armiyaning noroziligiga sabab bo'ladi. Chunki harbiylar Mustafo Kamolning tarafdorlari hisoblanardi. Ular bu voqealarga bevosita jim qarab turolmas edi. Uchinchidan, jamiyatning boshqa guruh vakillariga qaraganda harbiylarda to'ntarish o'tkazish uchun kuch ham yetarli edi, jasorat ham yetarli edi. Turkiyada armiya demokratiyaning tayanchi va Otaturk tamoyillarining himoyachisi hisoblanadi. Bu harbiy to'ntarishlar Turkiya tarixida ijobiy iz qoldirgan. Sababi, harbiy to'ntarishlar o'tkazilgandan keyin demokratik islohotlar davom ettiriladi. Misol uchun 1961 yilda mamlakatning yangi konstitutsiyasi qabul qilinadi, siyosiy partiyalar tuzilishiga ruxsat beriladi. Qolaversa mamlakat aholisining turmush darajasi oshadi. Inflyatsiya darajasi tushadi. Qishloq xo'jaligi, tekstil, energetika sohalarida bir qancha amaliy islohotlar o'tkaziladi. Shu sababli bu to'ntarishlarning ahamiyati juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

- 1.1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari .T.: O'zbekiston , 1997.
- 1.2. Karimov I. A .Tarixiy hotirasiz-kelajak yo'q.T.: O'zbekiston ,1998.
- 1.3. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-tom. - T.: O'zbekiston, 2003.
- 1.4. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. - T.: O'zbekiston, 2004.
- 1.5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.

II. Ilmiy adabiyotlar

O'zbek va rus tilidagi adabiyotlar:

- 2.1. Абдураззакова. М. Политика лаицизма в Турции: история и современность. – Ташкент, 2007.
- 2.2. Anvar Qosimov Hozirgi Turkiya - T: O'zbekiston, 1992.
- 2.3. Данилов В.И. «Турция после Второй мировой войны: демократический эксперимент продолжатется» -М:Восток,1998.
- 2.4.Зубкова А.И. Влияние снижения роли армии в политике Турции на стабильность в стране – М., 2005.

- 2.5. Иванова И.И. Турецко-арабские отношения и их место в системе международных связей на Ближнем Востоке. – М, 1985.
- 2.6. Киреев Н.Г. «ИСТОРИЯ ТУРЦИИ XX ВЕКА» - Москва. крафт ив ран, 2007.
- 2.7. Кунаков В.В. Турция и ЕС: проблемы экономической интеграции. – М, 1999.
- 2.8. M.Lafasov. U. Jo'rayev. Jahon tarixi – Toshkent: Muharrir, 2007.
- 2.9. Мирский Г.И. Армия и политика в странах Азии и Африки. М. 1970.
- 2.10. Мирский Г.И. Роль армии в политической жизни стран "третьего мира". М., 1989.
- 2.11. Мирский Г.И. Третий мир: общество, власть, армия. М.1976.
- 2.12. Поцхверия Б.М. Внешняя политика Турции в 60-х – начале 80-х годов XX в. – М., 1986.
- 2.13. Сурен Манукян. Роль армии на ближнем востоке – Ереван, 2007.
- 2.14. Туровская.А.А. Роль армии в политическом развитии Турецкой Республики и Исламской Республики Пакистан после Второй мировой войны. Сравнительный анализ - Москва. 2014.

Xorijiytillardagi adabiyotlar

- 2.15. Abdulvahap Akinci. Türkiye'nin Darbe Geleneği: 1960 ve 1971 Müdahaleleri. Anqara, 2014.
- 2.16. Ahmed Feroz Demokrasi Sürecince Türkiye 1945-1980. –İstanbul. 2007.
- 2.17. Ahmet Taner. Siyaset Bilimi.- Eskişehir: Anadolu Üniversitesi Yayınları, 2004.
- 2.18. Akşin Sina. Ana Çizgileriyle Türkiye'nin Yakın Tarihi, İmaj Yayıncılık, Ankara.1996.
- 2.19. Akşin Sina. Kısa Türkiye Tarihi.- İstanbul.: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008.
- 2.19. Akşin Sina. (2000). Türkiye Tarihi-Çağdaş Türkiye.-İstanbul: Can Yayınları, 2003.

- 2.20. Ali Fuad Başgil (çev. Mehmet Ali Sebük ve İsmail Hakkı Akın), 27 Mayıs İhtilali ve Sebepleri, Çeltüt Matbaası, 1966.
- 2.21. Armoğlu Fahir. 20.Yüzyıl Siyasi Tarihi.- İstanbul. 2007.
- 2.22. Burcu Bostanoğlu. Türkiye-ABD ilişkileri.-Ankara, 2008
- 2.23. Çetin Yetkin. Türkiyede askeri darbeler ve Amerika.-İstanbul, 2010.
- 2.24. Ceyhun Haydarog'lu. Türkiye'de darbelerin ekonomi politig'i. – Eskişehir, 2011.
- 2.25. Dr. Idris Bal. Askeri darbeler ve Türk dış politikası.- Ankara, 2011.
- 2.26. Dr. Irfan Neziroğ'lu. Türkiye'de askeri müdahaleler ve basın (1950-1980).- İstanbul,2003.
- 2.27. Hasan Celal Güzel, Prof. Dr. Ali Birinci.Genel Türk tarihi.- Ankara: Timor, 2000.
- 2.28. Haydar Tunçkanat. 27 Mayıs 1960 Devrimi (Diktadan Demokrasiye). - Çağlayan Yayınevi, 1996.
- 2.29. Hulûsi Turgut. Türkes'in Anıları. - Şahinlerin Dansı, ABC, 1995.
- 2.30. Kapani Münci. Politika Bilimine Giriş - İstanbul: Bilgi Yayınevi, 1992.
- 2.31. Keyman, Fuat E.The Principle of Fairness in Turkey- EU Relations.-Ankara: Turkish Policy Quarterly, 2004.
- 2.32. Korkut Baratov,Türkiyede Devletcelik Savaşı.- Ankara:Aydin, 1982,-
- 2.33. Mehmet Kabasakal. Türkiye'de Siyasal Parti Örgütlenmesindeki Kısıtlamalar. Tesav Sempozyumu: Siyasi Partiler Ve Demokrasi.- Ankara: Tesav Yayını, 1995.
- 2.34. Mehter Hamdi. Siyasi Partilerin Mali İşlemleri ve Denetimleri, - Ankara: Turmob Yayınları, 2008.
- 2.35. Mehmet Şükran Özkaya. Adım Adım 27 Mayıs.- İleri Yayınları, 2005
- Numan Esin. Devrim ve Demokrasi - Bir 27 Mayısçının Anıları.- Doğan Kitap, 2005.

- 2.36. Orhan Erkanlı. Anılar...Sorunlar...Sorumlular - 27 Mayıs 1960 - 12 Mart 1971 Türkiye'si.- Baha Matbaası, 1972.
- 2.37. Ozan Örmeci. Türkiye'nin Çok Partili Sisteme Geçiş, Erişim Tarihi: - Ankara: Siyasal Kitapevi, 2011.
- 2.38. Sıtkı Ulay. 27 Mayıs 1960 Harbiye Silah Başına - General Sıtkı Ulay'ın Hatıraları, Kitapçılık Ticaret Ltd. Şti. Yayınları, Akşam Kitap Kulübü Serisi, 1968.
- 2.39. Tevfik Çavdar.Türkiye'nin Demokrasi Tarihi 1950-1995.- Ankara :İmge Kitabevi, 1996.
- 2.40. TBMM raporu. – Ankara: 2012.

III. Internet saytlari

- 3.1.<http://www.sredaziya.org>.
- 3.2. <http://www.meclishaber.gov.tr/develop> (BMM Araştırma Merkezi)
- 3.3. <http://www.tbmm.gov.tr>
- 3.4. <http://www.siyasaliletisim.com> (Siyasi bilimler merkezi)
- 3.5. <http://www.hurriyet.com.tr>
- 3.6. <http://www.sabah.com.tr>

Ilovalar



Alparslon Turkesh radio orqali to'ntarish xabarini o'qimoqda
(1960 yil 27 may, juma ertalab soat 5.25.)



1960 yil 27 may to'ntarishi



Talabalar namoyishi



Talabalar namoyishi



O'sha davrning gazetalari da to'ntarishning yoritilishi



1971 yil 12 mart to'ntarishi tashabbuskorlari (Faruk Gürler, Memduh Tağmaç, Celal Eyiceoğlu Muhsin Batur) (chapdan o'ngga)



Jevdet Sunay va Sulaymon Demirel